

O'qituvchi nimani o'ylaydi?

Har yili shu paytgacha tayanch o'quv reja tasdiqlanar edi. Bu yil hamma o'qituvchilarning ko'zi to'rt bo'lib kutib o'tiribdi. Avgust kengashlarini o'tkazish bo'yicha ham endi buyruq chiqdi. Qiziq, o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Bu ishlarning barchasiga ulgurilarmikan?

4-bet


Xorijiy diplomlar — O'zbekistonda

tan olinishi tartibi belgilandi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini takomillashtirish haqida"gi 620-sonli qarori 2019-yil 2-iyulda qabul qilinib, "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqida"gi Nizom tasdiqlandi.

5-bet

Bolani jazolash o'rinlimi?



O'qituvchining ozgina qattiqqo'lligini "zulm" deb bilgan ota bolasining yonini olib, muallimga do'q ursa, o'spirin yigit qanday qilib ustozini hurmat qiladi?

11-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 10-avgust, shanba № 62 (9231)

Xalq ziyolilari gazetasi

Yosh matematiklar yutug'i



16-bet



Fikr, mulohaza, taklif

OTMlar reytingi:

Asl holatni ko'rsatib berolganmi?

Mezonda OTM professor-o'qituvchilarining bilim darajasini baholash degan badda ushbu yo'nalishga 4 ball ajratilgan, shundan ikki bali xorijiy tillarni bilish, qolgan ikki bali esa AKTni bilish uchun. Professor-o'qituvchining o'z fani bo'yicha bilimi-chi? Aksariyat OTMlardagi mutaxassislik fanlaridan kiradigan professor-o'qituvchining bilim darajasi haminqadar bo'lib yotibdi-ku, uni hisobga olish kerak emasmi?

To'liq davlat tomonidan ta'minlanadigan OTMlarning ta'lim uchun yaratilgan shart-sharoitini qanday qilib baholash mumkin?

Ma'naviyat soatlari o'tilishi, mahallada tadbir qilinayotganligi, majlislarda tushirilgan rasmlar

bilan aniqlashmoqchimi? Xullas, mana shu band eng noprofessional band bo'libdi.

Bizning OTMlar bitiruvchilari qanday qilib ishga joylanishini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Talaba bitirmasdan oldin istagan muhri bor har qanday joydan shartnoma qog'oziga muhr bostirib kelsa, kifoya, ish bilan ta'minlangan hisoblanadi.

Fikrimcha, reyting tuzishning metodik mezonlari ancha bo'sh tayyorlangan. Ularda nimalar aks etishi kerak edi, aslida? Avvalo, OTMda tayyorlanib chiqarilayotgan kadrlarga real bozordagi talab baholanishi lozim edi. Boisi ko'plab bitiruvchilarimiz o'z sohasi bo'yicha yashash joyidan ish topishga qiynaladi.

7-bet

O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

Muhtaram vatandoshlar!

Xalqimiz butun musulmon ummati bilan birgalikda katta shod-u xurramlilik ila kutib olayotgan Qurbon hayiti bilan sizlarni, go'zal diyorimizdagi barcha mo'minlarni chin qalbidan samimiy tabriklab, eng ezgu tilaklarimni bildiram.

Asrlar davomida el-yurtimizning ma'naviy hayotida beqiyos o'rin egallab, jamiyatimizda o'zaro hurmat, mehr-oqibat va bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlab kelayotgan ushbu qutlug' bayram barchamizga muborak bo'lsin!

Mana shunday shukuhli va saodatli ayyomda hammamiz avvalo Alloh taboraka va taologa beqadad shukronalar aytishimiz tabiiydir.

Siz, azizlarga yaxshi ma'lumki, O'zbekistonda so'nggi yillarda milliy-diniy qadriyatlarimizni tiklash va rivojlantirish, e'tiqod erkinligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, turli millat va etlatlar o'rtasida totuvlik, ahillik va hamjihatlik muhiti tobora yuksalib bormoqda.

Ayniqsa, xalqimizning islom madaniyati va sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini mamlakatimiz va dunyo jamoatchiligiga yetkazish, tabarruk qadamjolarni obod qilib, ziyoratgohlarga aylantirish, buyuk ajdodlarimizning ilmiy-ma'naviy merosini chuqur o'rganish va targ'ib etish borasida boshlagan xayrli ishlarimiz ilm-u ma'rifatning qadriga yetadigan el-yurtimiz va xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq qo'llab-quvvatlanmoqda.

Fuqarolarimiz uchun yaratilgan yangi imkoniyat va sharoitlar tufayli ushbu mo'tabar va ulug' ayyom kunlarida Makkayi mukarramada muqaddas haj amallarini ado etayotgan 7 mingdan ziyod vatandoshlarimiz bugungi tinchoyishta, erkin hayot uchun Parvardigori olamga hamd-u sanolar aytib, yurtimizga ravnaq, xalqimizga xayr-baraka so'rab, duoyi fothihalar qilishmoqda.

Hojilarimizning barchasini samimiy muborakbod etib, ularning o'na diyorimizga sog'-salomat qaytib kelishlarini tilaymiz. Ular o'zlarining ibratli fazilatlarini, jamiyat hayotidagi faol ishtiroki bilan yosh avlodimizni el-yurtga sadoqatli va fidoyi, hidoyat yo'lidan boradigan halol va pok insonlar etib tarbiyalashga munosib hissa qo'shadilar, deb ishonamiz.

(Davomi 2-betda.)

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz
/marifat.uz
@marifatziyo

O'ZBEKISTON XALQIGA QURBON HAYITI TABRIGI

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Yaratganning ne'matlarini ziyoda bo'layotgan va shukronalik hislari qalblarimizni nurafshon qilayotgan ushbu ayyomda uzoq va yaqin hududlarda joylashgan barcha musulmon mamlakatlari-ning xalqlarini, xorijiy do'st va hamkorlarimizni qutlab, ularga tinchlik, bardavom taraqqiyot va farovonlik yor bo'lishini tilaymiz.

Qadrlı yurtdoshlar!

Qurbon hayitining mamlakatimizda mustaqillik bayrami arafasida keng nishonlanishi xalqimizning ruhi va kayfiyatini yanada ko'tarmoqda.

Ayni shu kunlarda el-yurtimizga xos bo'lgan mehr-muruvvat, shafqat va saxovat tuyg'ulari yaqqol namoyun bo'lib, barchamizni ehtiyojmand, kam ta'minlangan va boquvchisini yo'qotgan oilalar, nogironlar, yolg'iz keksalarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ziyoratgohlar, muqaddas qadamjolar va qabristonlarni obod qilish kabi savobli ishlarga da'vat etmoqda.

Bunday xayrli amallar mamlakatimizda ijtimoiy hayotning turli sohalarida ro'yogba chiqarilayotgan, insonni aziz va mukarram deb bilishga, jamiyatimizda qonun va adolat ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarimizga har tomonlama uyg'un va hamohangdir.

Biz ularning zamirida islom dinining insonparvarlik mohiyati va qudratini ko'ramiz, buyuk ma'naviy meros vorislari ekani-mizdan haqli ravishda faxrlanamiz.

Hurmatli vatandoshlar!

Barchangizni Qurbon hayiti bayrami bilan yana bir bor chin yurakdan muborakbod etaman.

"Diling — Allohda, qo'ling — mehnatda bo'lsin", degan olijanob e'tiqod bilan yashayotgan xalqimiz doimo omon bo'lsin!

Jonajon Vatanimiz, xonadonlarimizdan xotirjamlik, ahillik, fayz-u baraka hech qachon arimasin!

Ezgu intilish va ishlarimizda Yaratganning o'zi hamisha madadkor bo'lsin!

Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

QONUNNI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAKLIFLAR BERILDI

Toshkent moliya institutida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi ishchi guruhining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 22-iyul kuni qabul qilingan "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Aytish joizki, so'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ilm-fan sohasiga alohida e'tibor qaratilib, respublikada yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy innovatsion faoliyatni rivojlantirish, oliy ta'lim va ilm-fan salohiyatini mustahkamlash, iste'dodli yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilish borasida maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmogda.

Bugungi kunda milliy iqtisodiyotimiz samaradorligining asosini tabiiy va mehnat resurslari qatorida mamlakatimizning ilmiy-texnikaviy salohiyati ham tashkil etadi. Jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarilayotgani ilmiy faoliyatning ahamiyatini yanada oshirdi.

Shu bois mamlakatimizda ilm-fan sohasini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga, salohiyatli kadrlarning qobiliyatini ro'yogba chiqarishga katta ahamiyat berilmogda. Xususan, respublika oliy ta'lim muassasalarida 26 ming 476 nafar professor-o'qituvchi faoliyat yuritilmogda, ularning 9 ming 636 nafari ilmiy darajalarga ega.

Birgina 2018-2019-yillarda 1 382 nafar tadqiqotchi dissertatsiya himoya qilgan. Biroq sohada mavjud kamchilik va muammolar, avvalo, uning qonunchilik negizini yangilash va mustahkamlashni taqozo etmoqda. "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni bu yo'nalishda qo'yiladigan muhim qadam bo'lishi lozim.

Ishchi guruh a'zolari qayd etganidek, qonunning maqsadi ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi

munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Hujjatda sohadagi faoliyatning ilmiy ijod va axborot erkinligi, samaradorlik, manfaatdorlik va rag'batlantirish, xolis ilmiy ekspertiza, inson hayoti va salomatligiga zarar yetkazmaslik kabi asosiy tamoyillar mustahkamlab qo'yilmogda.

Shuningdek, sohaning asosiy yo'nalishlari qatorida ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirish orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligi va samaradorligiga erishish, uning ustuvor yo'nalishlarini belgilash va resurslarni maqsadli yo'naltirish, davlat ilmiy dasturlarini ishlab chiqish, asoslan-tirilgan tashabbus va loyihalarni qo'llab-quvvatlash kabi maqsadlar qayd etilgan.

Bundan tashqari, qonunda ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash, ilm-fanga intilish va uning jozibadorlik muhitini shakllantirish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etish, yosh iste'dod egalarini tayyorlab borish kabi yo'nalishlarga ham urg'u berilmogda.

Qonunda havolaki normalarning mavjudligi, uning to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiluvchi qonunga qo'yiladigan talablarga qay darajada javob bersh ko'rib chiqildi. Qonunning bir qator moddalariga aniqlik kiritish, tahrir bilan bog'liq takliflar bildirildi. Xususan, Qonunning 3-moddasida aks etgan ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasining asosiy prinsiplarini amaliyotga yo'naltirilganlik va innovatsion yondashuv prinsiplari bilan to'ldirish taklifi bildirildi. Shuningdek, Vazirlar Mahkamasi, Innovatsion rivojlanish vazirligining ilm-fan va ilmiy faoliyat sohasidagi vakolatlarini yana bir bor ko'rib chiqish zarurligi qayd etildi.

Shulardan kelib chiqib, yig'ilish ishtirokchilari ushbu qonunni chuqur o'rganish lozimligi to'g'risida fikr-mulohazalar bildirdilar.

Nurillo NASRIYEV,
O'ZA muxbiri

Mard odam xolis so'z aytadi

Assalomu alaykum, hurmatli Murod Muhammad Do'st!

Men bir keksa o'qituvchiman, hayotim davomida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal degan muqaddas uchlikka qaysidir ma'noda amal qilib yashashga intilaman. El-yurt, millat fidoyilari bo'lgan yozuvchilar, olimlarni ham shunday ulug' maqsadlar bilan yashaydigan toifaga mansub deb bilaman. To'g'risi, sizni atoqli adib, ziyoli inson deb bilardim va chuqur hurmat qilardim. "Galatpega qaytish", ayniqsa, "Lolazor" asarlaringizni qiziqib o'qiganman. Keyinchalik, bu yozuvchi nega ko'rinmay, yozmay ketdi, desam, birlari, u kishi kattakon bo'lib ketgan, dedi, birlari esa, xafa bo'lmaysiz, biroz maishatga berilib ketgan, dedi... Inson adashadi, bitta terining ichida necha bor ozib, necha bor semiradi. Lekin to'g'risini aytaman, maishatga berilgan, ichkilikka ruju qo'yan odam, asta-sekin o'zligini yo'qota boradi, alamzada, jizzaki bo'lib qoladi.

Xafa bo'lmang, sizda ham shunday holatni sezgan-dek bo'lyapman, adashgan bo'lsam, uzr so'rayman. "Fecebook"imgizdagi fikrlaringizni o'qib, to'g'risi, nafaqat hayron bo'ldim, balki uyaldim. O'zbekistonimizda keyingi yillarda bo'layotgan o'zgarish, bunyodkorliklarni butun dunyo ko'rib turibdi, tan olyapti, tahlil qilyapti. Katta-katta davlatlarning nufuzli rahbarlari e'tirof qilyapti, o'rganyapti.

Negaki, yurtimizda xalqparvar siyosat olib borilyapti. "Xalqning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir", degandir Amir Temur bobomiz. Yillar davomida baraklarda, katalakdek tom ostida yashagan minglab oilalarning yangi uylarga ko'chib o'tayotgandagi quvonchini biror narsa bilan qiyoslash mumkinmi?..

Bularni birma-bir sanamoqchi emasman, ko'zi ochiq, aql-hushi joyida bo'lgan odam buni sezmasligi mumkin emas.

Meni hayron qilgan holat: siz bularning birortasini ko'rmayotganingiz. Kimlarning, nimaning ta'sirida bunday "qoralama"ni yozgansiz, bilmadim. Eng ajablanarlisi, siz jamiyatga, bo'layotgan o'zgarishlarga yozuvchi nigohi bilan qaramagansiz. Ba'zi bir hayvonlar borliqini faqat oq-qora rangda ko'radi, turfa ranglarni ilg'ay olmaydi. Men O'zbekistonda bo'layotgan o'zgarishlarni maqtashingiz kerak edi, demoqchi emasman, hali qancha kamchiliklar bor, buni hamma biladi. Prezidentning o'zi "Yolg'onsiz yashashga o'rganaylik", deb turibdi. Qancha o'g'rilik, poraxo'rlik... Birgina prokuratura tizimida bu yil qancha odam noqonuniy xatti-harakatlari uchun ishdan chetlatildi, javobgarlikka tortildi, qurilish, sog'liqni saqlash, ta'limga-chi?

Yillar davomida to'plangan kamchiliklarni qisqa vaqtda bartaraf etish qiyin. Yaqinda bir universitetda ishlaydigan olim jo'ram bilan gaplashib qoldim. Bilasami, o'tgan yili o'qishga kirgan talabalar bilim jihatidan hozirgi 4-kursdagilardan ancha baland, deydi. Buning sababi — endi o'qishga bilimlilar kira boshladi. Prezident hammamizning mudroq bosgan dillarimizni uyg'otdi, oqni oq, qorani qora, deya boshladik. Men istardimki, hamisha shunday bo'lsin, hammayoqni oppoq deyish ham, hammayoqni qop-qora deyish ham noto'g'ri. Hamma rahbarlarni egri, nopok, vijdon bilan ishlamayapti, deb birdek yomonotliq qilish adolatdan emas. Ularning orasida kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlayotgan qancha fidoyi insonlar bor. Albatta, noinsof, xalqning rizqini kemirayotganlari ham yo'q emas.

Bizga, jamiyatga bugun xolis, kimningdir buyurtmasi bilan bir yoqlama — hammayoqqa qora chaplaydigan yozuvchilar kerak emas, hamma ishni zo'r, deb qarsak chaladigan maddoh adiblar ham kerak emas. Bizga vijdon amri bilan qalam tebratadigan haqiqiy yozuvchilar kerak. Yozuvchi odam ezgulikning, haqiqatning yuziga tupurmaydi.

Hurmatli Murod Muhammad Do'st!

Siz xalqingizga chin do'st bo'lsangiz, kimningdir tegirmoniga suv quyadigan tuhtamini emas, haqiqatni yozing. Men Abdulla Qahhor, Ozod Sharafiddinov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripovlarni keyingi paytlarda ko'p eslayapman. Ular haqiqiy olim, yetuk shaxs, millat fidoyilari edi. Sizning havoyi, mayda so'zlaringizni o'qib yana bir karra ularni esladim, sog'indim.

Bugun har birimiz o'z fikrimizni oshkora, bo'yamay-bejamay aytayapmiz. Prezident mamlakatda shunday muhitni yaratib berdi. Bu nima deb bo'lsa ham, aljirayverish degani emas. Ko'zingizni oching, atrofga nazar soling, bo'layotgan o'zgarishlardan quvoning, dilingiz yayrasin, ana undan keyin bu ishlar yanada yaxshi bo'lishi uchun to'g'anoq bo'layotgan kamchiliklarni gapiring, lekin xolis gapiring! Mard odam hamisha xolislik, haqiqat yo'lini tanlaydi.

Inim, ko'p gapirib yuborgan bo'lsam, uzr so'rayman, Sizni biz eshitdik, siz bizni eshitingiz. "Ot tepkisini ot ko'taradi", deydi xalqimiz. Meni to'g'ri tushunasiz, degan umiddaman.

Hurmat bilan,

Toshpo'lat AHMEDOV,
nafaqadagi o'qituvchi

Mushtariy muhokamasi

Avgust kengashlari sizga nima beradi?

O'qituvchining o'quv yili davomida samarali faoliyat yuritishi ta'tilda ruhan va jismonan hordiq chiqargani hamda bilim-metodik jihatdan qanchalik taraddud ko'rganiga bog'liq. Aytaylik, uch oy mobaynida dars o'tmagani o'qituvchida bu tanaffus tufayli bo'shliq yuzaga kelgan bo'lishi mumkin. Mana shu bo'shliqni endi u yangi ta'limiy metodlar bilan boyitishi maqsadga muvofiq. Yoki o'tgan yili amalga oshirgan samarali ishlarini boshqa hamkasblariga tajriba sifatida taqdim etish, ko'rsatgan ijobiy natijalari evaziga munosib rag'bat olish ham uning yangi o'quv yilini o'zgacha ishtiyoq bilan boshlashiga yordam beradi. Shu jihatdan har yili an'anaviy ravishda o'tkazilib kelingan Avgust kengashlarining o'rni katta. Ammo bu kengashning pedagoglarga qanchalik asqotayotgani yuzasidan o'qituvchilarda turfa xil qarashlar mavjud. Buni "Ma'rifat" mushtariylari telegram guruhidagi tortishuvlardan ham anglash mumkin.

G'ayrat QORABEKOV:

— Keling, shu kengashlar haqida bugun rostini aytay — hech narsa bermaydi. Kengashlar to'g'risida buyruq XTVdan keladi, shu buyruqdan nusxa ko'chirib maktablarga tarqatiladi. Keyin esa "Falon" fandan shuncha o'qituvchi qatnashdi, shuncha qatnashmadi" qabilidagi rasmiyatchilik boshlanadi. Bergan taklif-mulohazalarimiz manziliga yetib ham bormaydi. Qog'ozbozlik, rasmiyatchilikdan boshqa narsa emas. O'zi bugunning o'qituvchisi XTBdan oldin yangiliklardan xabardor bo'ladi. Avvalo, kengashga bosh bo'layotgan metodistlar talabga javob berishi, yangilik yarata olishi, ijodkor, toifasi ham oliy bo'lishi kerak.

Lobar YOQUBOVA:

— Navbatdagi rasmiyatchiliklardan biri xolos. Ba'zan nimaga borib kelganingni ham bilmaysan. Agar kengashlarda qo'yilgan masalalar faqat qog'ozdama, haqiqatda muhokama qilinib, yangi o'quv yili uchun istiqbolli rejalar tuzilsa edi, o'qituvchilarning noroziligiga sabab bo'lmasdi. Afsuski, shunchaki majlis-bozliklar ko'payib ketmoqda. Aslida bu kabi ishlar o'quvchi dunyoqarashini boyitish, ilmiga ilm qo'shish uchun ahamiyati bormi?

Feruz JALOLOVNA:

— Nega kengashlar kerak emas ekan? Gap uning qanday darajada o'tkazilishiga, qatnashchilarning yig'ilishida ishtirok etish ishtiyoqi va saviyasiga bog'liq. O'quv yili so'ngida darslikni tugatib, chorak oxirigacha endi o'quvchilarni nima bilan shug'ullantirishni bilmaydigan o'qituvchilar ko'plab topiladi. Har birimiz o'zimizga savol berishimiz kerak: biz hamma narsani bilamizmi? Metodik yordam, o'zaro tajri-

ba almashish kerakmasmi bizga? Toshkentda ham, viloyatlarda ham tayyor tavsiyalarni berishadi. Biz oddiy tinglovchi sifatida aprobsiya bo'lmagan, hali tajribada sinalmagan tavsiyalarni bajarishimiz lozim. Bizning bu boradagi fikrlarimizni hech kim tinglamaydi.

Shahnoza AVAZOVA:

— Avgust kengashlari kerak. Uni olib boradigan metodist pedagoglar uchun zaruriy yangi ma'lumotlar bersa, tushuntirishlar olib borsa, kengashda qatnashgan har bir pedagog o'ziga biror yangilik olib qaytsa, amaliyot davomida olingan ma'lumotlar o'z samarasini ko'rsatsagina bu kengashning samarasi yaxshi bo'lardi.

Farida AXBORALIYEVA:

— Avgust kengashi hamma o'qituvchilar uchun muhim va zarur. Faqat unga to'g'ri maqsad qo'yib, nima o'rganaman, deb borish kerak. Hali bormay turib, nega kerak menga shu kengash, desak, albatta, hech narsa olmay qaytib kelamiz. Yana avgust kengashining tashkilotchilari bilan ham bog'lanib, bizga mana bu masalalarda metodik yordam kerak, kengashni, yig'ilishlarni mana bunday tashkillashtiraylik, deb ularga fikr berishimiz joiz. Ana shunda ular biz qanday ma'lumotlarga ehtiyoj sezayotganimizni aniq-ravshan bilishadi.

Hafiza RASHIDOVA:

— Metodistlarning vazifasi nimadan iborat? Biz o'qituvchilar hech ularning faoliyati samarasini ko'rmadik. Sho'ba yig'ilishlarida qo'yilgan maqsad amalga oshirildimi? Yo'q va yana yo'q. Har yili "Ma'rifat" gazetasida ustozlarga

yordam sifatida sho'ba yig'ilishlarini o'tkazish bo'yicha tavsiyalar beriladi, lekin bu belgilangan rejalari, tavsiyalar qay darajada bajarilmoqda? Javobi ustozlarga havola.

Matluba NAVRO'ZOVA:

— Avgust kengashi deganda issiq, dimiqqan xona, asabiy-lashib biror yangilik aytilishi va kengashning tezroq tugashini kutayotgan ustozlar hamda birorta ham savolga aniq javobi yo'q "chiroyli" kiyin-gan metodistlar ko'z oldimga keladi. Afsuski, 30 yildan beri bir xil manzara.

MAVJUDA:

— O'tkaziladigan kengashlar "rasmiyatbozlik"dan iborat bo'lib qolayotganday, nazarimda.

Dildor NURMUHAMEDOVA:

— Bugun kengashni yo'q qilaylik, ertaga seminarni yo'q qilamiz. Indin-chi? Darsgami navbat? Ustozlar, ular yaxshi o'tkazmasa, siz o'tkazing. O'quv yili oldidan kasbdoshlarning uchrashuvi kerak-da endi! Kengashlar o'tkazilishi juda muhim. Metodist bilan tumandagi malakali pedagoglar birlashishi kerak.

Gulchehra ASHUROVA:

— Avgust kengashlari zarur. Faqat yangilangan, davr talabiga javob beradigan tarzda o'tkazilishi lozim. Necha yillardan buyon bir xil senariy. Men sho'ba rahbariman. Ayrim pedagoglarga mavzu bersangiz, yuzaki tayyorlanib keladi. Motivatsiya, yangilik, izlanish, strategiya yo'q.

Kengash hech narsa bermaydi, desak, pedagogik yillarimizga xiyonat qilgan bo'lamiz. Faoliyatimizda havas qilarli, andoza oladigan, uslub, mahorat o'rganadigan, pedagogik masalalarga yechim topadigan kengashlar ham o'tkazilgan. Kengashdan nimalardir o'rganagan paytimiz bo'lgan, bundan keyin ham bo'ladi. Eng muhimi, mohir, tajribali pedagog kengashni o'tkazishga bosh bo'lishi kerak. Joylarda kengashlarning zerikarli, foydasiz, samarasiz o'tayotgani faqat metodist va tashkilotchining aybi emas, bunga hafsalasiz o'qituvchilar ham aybdor.

A.AZIMOVA:

— Bizning Xonqa tumanimizda Avgust kengashi har yili yaxshi tash-

kil qilinadi. Bu kengashga bayramga bog'anday boramiz. Zerikishga vaqt bo'lmaydi. Aniq reglament asosida o'tkaziladi. O'tgan yildagi yutuqlar, kamchiliklar sarhisob qilinadi. Muvaffaqiyatga erishgan ustozlar taqdir-lanadi. Kamchiliklar ko'rsatib o'tiladi. O'quvchilarimizning yutuqlari aytiladi va rag'batlantiriladi. Yangi o'quv yilini yaxshi kayfiyat bilan boshlash uchun konsert beriladi. Ustozlar o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Shu konferensiyaga qator yillardan beri taklif qilishadi. Boraman. Olgan rag'batlarim menga yil davomida quvvat bag'ishlaydi.

Mohira CHORIYEVA:

— Oldimizda bu yilgi Avgust kengashlari turibdi. Biz doim qanday yangiliklar bo'lar ekan, deb kutamiz. Biroq har yili bir xillikni ko'ryapmiz. Bir yilda bir marotaba bo'ladigan kengashda yangi g'oyalar, yangi takliflar bilan chiqilsa yaxshi bo'lardi.

Nigora URISHEVA:

— Men ham bayramdek quvonib boraman Avgust kengashiga. Sababi, yozgi ta'tildan keyin qadrdon hamkasblar bilan uchrashuv imkonini beradi u. Biror yangilik bo'lmagan taqdirda ham qalban yaqin insonlarni ko'rib, shodlanaman. Buning zavqi boshqacha.

Oybek URUNOV:

— Avgust kengashi bu yangi o'quv yiliga tayyorgarlik, eski o'quv yilining yakunlari, oldindagi istiqbolli rejalarni belgilash, o'tgan o'quv yilida munosib tashkiliy ishlarni amalga oshirgan, fidoyilik ko'rsatgan, yutuqlarga erishgan pedagoglarni taqdirlash, darsliklar va ularning kamchiliklari, yutuqlarini ko'rsatib berish, shuningdek, barcha pedagoglarning taklif-mulohazalarini o'rganib, yangi innovatsiyalar bilan o'rtoqlashish uchun tashkil etiladigan anjuman hisoblanadi. Avgust kengashlari biz pedagoglar uchun judayam zarur. Yuqoridagi fikrlar ichida Avgust kengashlari kerakmas, degan ustozlarga qarata shuni alohida ta'kid-lamoqchimanki, sizning tumaningizda uning yaxshi tashkil etilmaganligi bu umumning aybi emas. Siz ham tashabbus ko'rsating. Men Denov tumanida har yili tashkil etiladigan Avgust kengashida ishtirok etib kelaman va tashkilotchilardan minnatdorman.

Zilola MADATOVA
tayyorladi.

Maktablar o'qituvchi bilan ta'minlandi

Qashqadaryo viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tashabbusi bilan joriy yilning 7-avgust kuni barcha tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlari binosida 2019-2020-o'quv yili uchun pedagogik kadrlarni umumiy o'rta ta'lim maktablariga ishga joylashtirish maqsadida mehnat yarmarkasi tashkil etildi.

Oliy o'quv yurtlarini tamomlagan yosh kadrlar, kasb-hunar kollejlari ishlab, hozirda ishsiz bo'lib qolgan o'qituvchilar mutaxassisga ehtiyoj bo'lgan umumiy o'rta ta'lim maktablariga ishga joylashtirildi.

Viloyatning chekka va tog'li hududlariga ishga borgan o'qituvchilarga ishlash va yashash uchun yaxshi shart-sharoitlar yaratib berish mahalla fuqarolar yig'inlari zimmasiga yuklatildi.

Mehnat yarmarkasi jarayonida 179 nafar yosh bitiruvchi va 171 nafar kasb-hunar kollejlarning o'qituvchilari umumiy o'rta ta'lim maktablariga ishga joylashtirildi.

Tuman, shahar xalq ta'limi bo'limlarida tashkil etilgan tadbir jarayonlari mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng yoritildi.

Sevin OCHOILOV



Teleskop o'rnatildi

Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tomonidan Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab-internati uchun Meade LX600 teleskopi sotib olindi.



Teleskop mutaxassis-astronomlar ko'magida maktab binosining yuqori qismida maxsus qurilgan pavilyonga o'rnatildi. Pavilyonning gumbazi, ya'ni yarimsfera shaklidagi tom qismi aylanadi va unda osmonni kuzatish uchun ikki tomonga ochiladigan maxsus tirgish — eshik mavjud.

Ushbu teleskop AQShning yetakchi Meade Instruments firmasi tomonidan ishlab chiqarilgan. Ko'zguining diametri 40 sm, fokus masofasi esa 325 sm bo'lib, 140 ming osmon jismini o'ta katta aniqlik bilan topa oladi. Teleskop GPS tizimi va Autostar II masofadan boshqaruv puli bilan jihozlangan. Ushbu jihozlar yordamida teleskop to'liq avtonom rejimda o'zini-o'zi sozlashi va kuzatuvlarni dasturlashi mumkin.

Teleskopga yuqori sifatli optikaga ega Schmidt-Kassegren sxemasi o'rnatilgan. U osmon jismlarini nazariy jihatdan 100 mardan 800 martagacha kattalashtirish imkoniyatiga ega. Uning yordamida Oy, sayyoralar va ularning yo'ldoshlari, asteroidlar va kometalar, yulduzlar va ularning to'dalari, tumanlik va galaktikalarni kuzatish mumkin. Ushbu teleskop yordamida maktab-internat o'qituvchilari o'zlarining ko'rinot haqidagi bilimlarini oshirib, tasavvurlarini kengaytiradilar.

Nazokat AZIM

PISA — o'qituvchilar diqqat markazida

Narpay tuman XTB monitoring guruhi tomonidan o'quvchilar savodxonligini baholashning xalqaro tadqiqot dasturi — PISA-21 bo'yicha o'quv seminari o'tkazildi.

— Bugungi kunda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga chiqarish masalasiga katta e'tibor qaratilmoqda, — deydi Narpay tuman XTB monitoring guruhi boshlig'i M.Mirzavaliyeva. — Trener-o'qituvchilar viloyat XTB-da o'quv kurslarida o'qib, malakasini oshirib kelishdi. Ushbu seminardan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning

o'qish (matnni tushunish), matematika, tabiiy fanlardan savodxonlik darajasi va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini oshirishda nimalar qilish kerakligini o'qituvchilarga tushuntirishdan iborat.

O'quv mashg'ulotlarida ona tili va adabiyot, kimyo, biologiya, matematika, geografiya va boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirok etdi. Dastlab qat-

nashchilarga PISA haqida ma'lumot berildi. Keyin PISA dasturi talablariga javob bera olish uchun uchta jadval: test tuzish, test sozlamalari va testni bajarishni darsga tatbiq qilish haqida tushunchalar berildi va amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Tinglovchilar fanlar kesimida besh guruhga bo'lindi va topshiriqlarni bajarish asnosida o'zaro fikr almashdi. Trener-o'qituvchilar tomonidan xato va kamchiliklar to'g'rilandi.

Nigora ZOIROVA,
Narpay tumanidagi 61-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Hamkorlik samarasi

Toshkent shahar "Bilim" AKM tasarrufidagi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon va Abdulla Qodiriy nomli ikkala kutubxona ijodiy jamoasining sa'y-harakatlari bois Olmazor tumani aholisiga ajoyib tuhfa hozirlandi.

O'z faoliyatini yangidan boshlaganiga ko'p bo'lmasa-da, Hafiza Karimova boshchilik qilayotgan kutubxona fondida 12 mingdan ortiq jahon adabiyoti, o'zbek mumtoz adabiyoti hamda bolalar sevib o'qiydigan kitoblar soni kundan kunga ortib bormoqda. Ayni paytda uning

kitobxon muxlislari soni ham kutilganidan ham ko'payib borayotgani quvonarli hol.

Olmazor tumanida yangi kutubxona faoliyatining muntazam olib borilishida, xususan, yangi kitoblarni joylashtirish, yosh xodimlarga ham ilmiy, ham amaliy yordam ko'rsatishdek ishlarda Chilonzor tumanidagi 82 yildan buyon muntazam faoliyat ko'rsatib kelayotgan "Bilim" AKM jamoasi a'zolaridan Dilbar Rahimboboyeva, Venera Murodova, Gavhar Xo'jayeva, Saodat Komilovalarning beminnat yordamlaridan barchaning ko'ngli to'q.

G'ayrat SHUKUROV,
jurnalist

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



Texnologiya fani o'qituvchimiz 5-sinfdan 9-sinfgacha sinfrahbarlik qildi. O'quvchilari 10-sinf, ammo uning fani endi o'tilmaydi. Xo'sh, o'sha o'qituvchi tayyor sinfini boshqaga beradimi? Musiqa o'qituvchimizda ham xuddi shu muammo. Dars soati bo'lmasa, sinf rahbarlik qilish mumkin emas deyishyapti. Bu qanchalik to'g'ri?

Feruz TURSUANOVA

O'tgan yili maktabimizga yangi direktor tayinlandi. Shundan buyon maktabimiz obro'si tushib bormoqda. Shu paytgacha barcha sinf rahbarlaridan maktab ta'miri uchun 300 ming so'mdan pul yig'ib olindi. Qolaversa, o'qituvchilar majburiy mehnatga jalb qilinmoqda. Qaniydi, maktabimizga Xalq ta'limi vazirligi xodimlari kelib vaziyatni ko'rib ketishsa...

Abbos LATIPOV

Sinf rahbarligi uchun juda kam miqdorda mablag' ajratiladi. O'yab qarasa, sinfdagi mayda-chuyda, ko'zga ko'rinmas yumshilar uchun ham yaxshigina pul ketadi. Aslida, o'qituvchi o'quvchilaridan mana shunday ishlar uchun pul yig'adi. Hech qachon bu pullar uning cho'ntagiga kirmaydi. Agar sinf rahbarligi uchun ham arziqli pul to'lansa, o'qituvchilar jonini berib ishlaydi.

Dilnoza AHMEDOVA

Har yili shu paytgacha tayanch o'quv reja tasdiqlanar edi. Bu yil hamma o'qituvchilarning ko'zi to'rt bo'lib kutib o'tiribdi. Avgust kengashlarini o'tkazish bo'yicha ham endi buyruq chiqdi. Qiziq, o'quv yili boshlanishiga ham sanoqli kunlar qoldi. Bu ishlarning barchasiga ulgurilarmikan?

Baxtiyor SHARIPOV

Ayrim o'qituvchilar maktablarda kuzatuv kengashi borligidan bexabar. Biladiganlari ham kimlar a'zo ekanini bilmaydi. Kuzatuv kengashlarining majlislari faqat daftarda yuritilishini mana shundan ham bilsa bo'ladi. Qaysi o'qituvchi ushbu kengashning samarali ishlayotgani haqida ayta oladi?..

Zevarshoh HAMROYEVA

Maktab bozorlari ham o'z ishini boshladi. Ammo yarmarkalarda kontrafakt o'quv qurollari ham uchrab turibdi. Ota-onalar bolaga o'quv qurollarini tanlayotganda har tomonlama e'tiborli bo'lishlarini so'ragan bo'lardim. Chunki sifatsiz mahsulot nafaqat bolaning o'qishi, ma'naviyati, balki sog'ligiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin!

Yulduz TOLLIBOYEVA

"Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi Nizom"da "nostrifikatsiya" terminidan voz kechildi.

Xorijiy diplomlar — O'zbekistonda

tan olinishi tartibi belgilandi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibini takomillashtirish haqida"gi 620-sonli qarori 2019-yil 2-iyulda qabul qilinib, "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqida"gi Nizom tasdiqlandi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olish, ishlash va bu borada o'qigan davlatda olingan malaka va hujjat boshqa bir davlatda tan olinishi ikki xil maqsadda amalga oshiriladi. *Birinchi*, ta'lim olishni keyingi bosqichda davom ettirish, ya'ni akademik tan olinish hamda *ikkinchi*, kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish uchun tan olish ko'zda tutiladi. Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risida ayrim davlatlarda hujjat tan olinsa, boshqalarida kvalifikatsiya, ya'ni malaka tan olinadi. O'zbekistonda va ayrim sobiq itifoq respublikalarida ushbu jarayon **nostrifikatsiya** deb ataladi. Masalaga turlicha yondashishning, bir xil narsalarni, jarayonlarni turlicha nomlashning o'zi muammo hisoblangani tufayli mamlakatimizda ham ushbu sohada xalqaro ta'lim tizimiga integratsiyalashuv boshlandi.

"Ta'lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4119-sonli qarorda xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilish tartibini takomillashtirish vazifasi qo'yilgan. Milliy ta'lim tizimining xalqaro hamjamiyatga integratsiyasi hamda ta'lim oluvchilar va professor-o'qituvchilar mobilligini ta'minlash, xorijda ta'lim olayotgan yoshlarning Vatanimizga qaytishlariga sun'iy to'siqlarni olib tashlash, malakalarni tan olish tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ushbu muammolar bo'yicha ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi vakillari xalqaro tajribalarni o'rgandi.

Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda qabul qilingan mazkur qaror va u bilan tasdiqlangan "Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi Nizom"da "nostrifikatsiya" terminidan voz kechildi, uning o'rniga Lissabon va Tokio konvensiyalarini ratifikatsiya qilgan davlatlarda ishlatilayotgan "**tan olish**" termini muomalaga kiritildi. Shu bilan birga xorijda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar (shahodatnoma, attestat, diplom kabi)ni tan olish mexanizmi soddalashtirildi.

Qarorda xorijiy davlatlarda umumiy o'rta va o'rta (2019-yil 1-sentabrdan), o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish haqidagi arizalar faqat Davlat xizmatlari markazlari yoki O'zbekiston Respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali qabul qilinishi belgilandi.

Buning uchun Xalq ta'limi vazirligi Davlat xizmatlari agentligi bilan birgalikda hududiy xalq ta'limi boshqarmalari

ning Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga ulanishini ta'minlashi ko'zda tutilgan.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi haqidagi Nizom 8 ta bob, 54 ta banddan iborat. Nizomda quyidagilar, xususan:

- xorijiy davlatlarda umumiy o'rta, o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish tartibi;
- xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish jarayonlari amalda 3 oygacha vaqt olgan bo'lsa, loyihada taklif etilayotgan tartib bo'yicha uzog'i 1 oy vaqt sarflanishi;
- talabgorlar arizalarni haftada faqat 2 kun topshirishi tartibi bekor qilinib, Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali arizalar topshirish tartibi belgilangan.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish bo'yicha 2 bosqichli (test va suhbat) maxsus sinovlardan suhbat jarayoni bekor qilinib, faqat bir bosqichli maxsus (test) sinovi qoldirildi. Shuningdek, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar maxsus sinovsiz tan olinadigan toifalari belgilandi. Jumladan:

1. O'zbekiston hududida filiallari mavjud OTMlarni tugatganlar.
2. Dunyo universitetlari reytingida TOP—1000 talikka kirgan OTMlarni tugatganlar.
3. Mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun xorijiy davlatlar tomonidan ajratilgan kvotalar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar.
4. 1992-yil 1-yanvargacha xorijiy OTMlarga o'qishga kirganlar.
5. Yevropa sifat kafolati assotsiatsiyasi (ENQA) tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar.
6. AQSh, Avstraliya, Isroil, Kanada, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya davlatlarining vakolatli organlari tomonidan akkreditatsiyalangan OTMlarni tugatganlar.
7. Mutaxassislarni maqsadli tayyorlash uchun O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan xorijiy OTMlarni tugatganlar.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bo'yicha xorijiy OTMlarga maqsadli o'qishga yuborilganlar.
9. Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus ma'lumot olganlar.

10. Xorijiy davlatlarda malaka oshirishdan o'tganlar.

Shuningdek, xorijda sirtidan yoki kechqurun o'qib olingan hujjatlar ham o'qish muddati mos bo'lgan holda tan olinmoqda. Rossiya Federatsiyasi va Belarus Respublikasi bilan hukumatlararo bitimlar imzolandi, bular ham yanada ko'proq imtiyozlarni ko'zda tutadi.

Xususan joriy yilda O'zbekiston Respublikasi hukumati bilan Belarus Respublikasi hukumati o'rtasida ta'limga va o'qishga oid hujjatlarni o'zaro tan olish to'g'risida bitim imzolandi.

Bugungi kunda xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish masalasi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan amalga oshirib kelinmoqda. Tahlillarga qarasa, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish va nostrifikatsiya qilishga oid 2015-yilda 2237 ta, 2016-yilda 2305 ta, 2017-yilda 2409 ta, 2018-yilda 4964 ta, 2019-yilning o'tgan davrida 7419 ta arizalarning ro'yxatga olingani va amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ko'rib chiqilgani mazkur yo'nalishda talabning o'sib borayotganini ko'rsatmoqda.

2018-yildagi 2547 ta murojaatdan katta qismi Qirg'iziston (34,4 %), Tojikiston (33,2 %), Rossiya Federatsiyasi (17,3 %), Qozog'iston (5,3 %) va boshqa davlatlar (6,1 %)ga to'g'ri kelgan. Sohalari bo'yicha qaralsa, pedagoglar 60 foiz, muhandislar va sog'liqni saqlash bo'yicha 20 foiz atrofida, 14 foiz huquqshunoslari, 5 foiz atrofida qolgan soha vakillari hamda ta'lim bosqichlari bo'yicha 85 foiz atrofida bakalavr, 5 foiz magistrlar va 10 foiz o'rta va o'rta maxsus ta'lim bitiruvchilari hisoblanadi. Mobillik natijasida chet ellarga borib O'zbekistonda olgan ta'limi, malaka va hujjatlarini tan oldirish uchun ovora bo'lib yurgan yoshlarimiz ham oz emas. 2018-yilda Rossiya Federatsiyasida 9 ming nafar, Qozog'istonda 8 mingdan ortiq, Ukraina, Belarus, Koreya, Yevropa davlatlarida qanchadan-qancha yurtdoshlarimiz yuqoridagi qayd etilgan muammolarga duch kelmoqda.

Jarayonni yanada soddalashtirish, talabgorlar uchun sharoitlar yaratish maqsadida hujjatlar soni kamaytirildi. Ayni damda talabgorning shaxsini tasdiqlovchi hujjat, xorijiy davlatda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjat va unga ilovani asl nusxasi davlat tiliga tarjima qilingan notarial tasdiqlangan nusxasi bilan birga davlat xizmatlari markazi xodimiga taqdim etiladi, xolos. U ham ro'yxatdan o'tkazib qaytarib beradi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlarni tan olish uchun Davlat inspeksiyasida ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ular hujjatlarni

ekspertizadan o'tkazib, tegishli xulosa tayyorlaydi. Unda ekspertlar o'qitilgan ta'lim dasturlari yoki o'quv rejalarini hajmi va mazmuni, o'zlashtirilgan mutaxassislik (ixtisoslik) fanlari hajmi (fanlarning nomi va soatlar miqdori), ta'lim dasturlari, o'quv rejalarini va o'zlashtirilgan bilimlar majmuyidagi farqlarga e'tibor qaratadi.

Xorijiy davlatlarda o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlar tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasidagi o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi hujjatlarga tenglashtirilgan holda, oliy ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar xorijiy davlatda tamomlangan ta'lim bosqichi bo'yicha tan olinadi.

Ekspert komissiyalari tomonidan ijobiy xulosa berilgan xorijiy davlatlarda oliy ta'lim va kadrlarni qayta tayyorlash ta'limi olganlik to'g'risidagi hujjatlarini tan olish uchun topshirilgan talabgorlar uchun Davlat inspeksiyasi tomonidan test sinovlari tashkil etiladi (to'g'ridan to'g'ri (sinovsiz) tan olinadigan holatlar bundan mustasno).

Test sinovlari talabgorlarning ta'lim olgan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha mutaxassislik fanlaridan o'tkaziladi. Test sinovlari 50 ta savoldan iborat bo'lib, har bir test savoli uchun 2 daqiqadan, jami 100 daqiqa vaqt beriladi. Har bir to'g'ri bajarilgan test savoli 2 ball bilan baholanadi. Test sinovlari natijalariga ko'ra, 54 va undan kam ball to'plagan talabgorlarning ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olinmaydi.

Test sinovlari natijalariga ko'ra ta'lim to'g'risidagi hujjatlarini tan olinmagan talabgorlar Nizomda belgilangan tartibda qaytadan murojaat qilishlari mumkin. Test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan talabgorlar, shuningdek, xorijiy davlatlarda ta'lim olganlik to'g'risidagi hujjatlar to'g'ridan to'g'ri (sinovsiz) tan olingan talabgorlarga Davlat inspeksiyasi tomonidan maxsus guvohnomalar onlayn tartibda beriladi. Xorijiy ta'lim to'g'risidagi hujjat guvohnoma bilan birgalikda taqdim etilganda O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy kuchga ega bo'ladi.

O'zbekistonda barcha sohalarda xorijiy tajribalar o'rganilib, innovatsiyalar joriy etilayotgan bir paytda ta'lim sohasida ham rivojlangan davlatlar mexanizmi integratsiya qilinmasdan iloji yo'q.

Zero, o'qiyman degan yoshlarga, birinchi navbatda mamlakatimizda kvotalarni oshirish orqali keng yo'l ochish, xorijda ta'lim olishni istaganlar uchun qonuniy yo'llarni taklif etish, mamlakatimizda ta'lim eksportini yo'lga qo'yish uchun oliy ta'lim berish sifatini oshirish, xorijda o'qib kelayotgan uka va singillarimizga o'qish va ishlashlari uchun imkoniyatlar yaratish bugungi kundagi dolzarb vazifalardir.

Abdurahim NOSIROV,
Ta'lim sifatini nazorat qilish
Davlat inspeksiyasi
bosh boshqarmasi boshlig'i

2018-yildagi 2547 ta murojaatdan katta qismi Qirg'iziston (34,4 %), Tojikiston (33,2 %), Rossiya Federatsiyasi (17,3 %), Qozog'iston (5,3 %) va boshqa davlatlar (6,1 %)ga to'g'ri kelgan.

Ijrochilik mahorati qanday oshiriladi?

Eshitganim bor; bir musiqa fani o'qituvchisi o'quvchilariga saboq berayotib, takror-takror uqtirarkan: "Bizning kasbimiz xuddi jarrohniki singaridir. Jarroh bemorini bir marotaba operatsiya qilganida darddan xalos eta olishi shart. Biz ham yil davomida qilgan mehnatimizni, egallagan bilimimizni bir ijroda ko'rsata olishimiz kerak. Ba'zi sport turlarida sportchining uch imkoniyatida ko'rsatgan eng yaxshi natijasi olinib, baholansa, bizda bittagina imkoniyat bor. Shuning uchun bor diqqatimizni, texnikamizni, bilimimiz va qalbimizni barmoqlarimiz uchiga jamlab, bir ijrodayoq tinglovchilar yuragiga kira olishimiz lozim".



Shu jihatdan olib qaraganda, bolalar musiqa va san'at maktablari(BMSM)da o'quvchilarning texnik va ijrochilik mahoratini oshirish eng muhim omillardan biri. Quyida yosh musiqa ishtiyomandlarining ijro texnikasini oshirish maqsadida BMSMlarda o'rganilishi zarur bo'lgan asarlarda etyudlar bilan ishlash usullari xususida to'xtalamiz.

Dastlab etyud so'zining ma'nosini sharhlasak. Etyud — fransuzcha "etude" — "o'rganish", "mashq" ma'nosini anglatadi. U muayyan texnik ijrochilik mahoratini takomillashtirish uchun yo'naltirilgan cholg'ular uchun pyesa(asar)dir. Ular barmoqlarning yuguruvchanligini, tersiyalar, oktaval bilan chalishda ijrochilik mahoratini rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Uni barcha musiqiy ta'lim muassasalariga singari bolalar musiqa va san'at maktablarining 1—7-sinf o'quvchilari muayyan dastur asosida o'rganadi.

Ijro texnikasini shakllantirish uchun dastlabki talablardan biri gavdani to'g'ri tutish, "qo'l holati"da bilak tepaga ko'tarilmagan (ayniqsa, akkordlar ijro-

sida) bo'lishi lozim. Tirsak tanadan 30 gradus burchak ostida bo'lishi, ijrochining yelkasi erkin holda turishi maqsadga muvofiq.

Asarni o'rganish jarayonida o'quvchining klaviaturaga emas, balki notaga qarab chalish ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bunda barmoq xotirasi yaxshi rivojlanadi. Chunki aynan applikatoraning qulayligi asarni eslab qolish jarayonini, barmoqlar xotirasini mustahkamlab, tez sur'atli passajlar ijrosini yengillashtiradi.

BMSMlarda majburiy dastur asosida Ch.Germer, K.Berens, B.Kramer kabi ko'plab kompozitorlarning etyudlar to'plamidan amaliyotda foydalaniladi. Quyida chex millatiga mansub nemis kompozitori va pedagogi, Vena fortepiano maktabining asoschisi, fortepiano ijrochiligini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan ijodkor, ko'plab etyud to'plamlari muallifi — Karl Cherni(1791—1857)-ning o'quvchilarning yosh xususiyatini inobatga olib yaratgan etyudlari asosida ijrochilikda qo'llaniladigan ayrim texnik usullarga to'xtalamiz.

Texnik usullarni shartli ravishda kichik va yirik usuldagi mashqlarga bo'lak. Kichik usuldagi mashqlarga "Punktir", "Gruppirovka" (2, 3, 4), "Kuchukcha" kiradi.

"Punktir" usuli barmoqlarning mustahkam va sanoqning tekis bo'lishiga xizmat qiladi. U asosan ikki tovush orasida, birini qisqa va birini uzun chalish orqali, ya'ni biri ikkinchisiga tayan-gan holda bajariladi.

"Gruppirovka" (2, 3, 4). Bunda notalar gruppirovkasi ikkitadan bo'lib, har ikki notaning birinchisiga aksent bilan to'xtash lozim. U barmoqlar xotirasini oshiradi. Gruppirovka nechtdan bo'lishidan qat'i nazar, har biriga to'xtalish lozim. Har bir guruhda aksentlarga to'xtash hisobiga nota cho'zimi biroz uzayadi. Gruppirovkadagi aksentsiz 2-, 3-, 4- va boshqa notalarning, tabiiyki, nota cho'zimi qisqaradi. Gruppirovkalar triollar bilan ishlash jarayonida samara beradi.

"Kuchukcha". Har bir barmoqning mustaqil harakatini oshirish, harakatlanishini takomillashtirish uchun mazkur usul juda zarur. Bunda 1-barmoqni ushlagan holda 2-barmoq 3 marta ketma-ket chalib, tovushni mustahkamlaydi. So'ng ikkinchisi tovushni "ushlab turadi", 3-barmoq esa tovushni mustahkamlaydi... Mashq shu tariqa asar yakunigacha davom ettirilib, o'rganib chiqiladi.

Yirik usuldagi mashqlarga "Gruppirovka" (6, 8, 12), "Yuramiz-yuguramiz" usullari kiradi.

"Gruppirovka" (6, 8, 12). Notalarni 6, 8, 12 tadan guruhlarga bo'lib, asarning boshidan oxirigacha avval birinchiga, keyin 2-, 3-, 4-, 5-, 6- va boshqalarga aksentli to'xtash lozim. Bunda asar tempi tezroq olinishi ahamiyatlidir. Masalan, 1...2...3...4...5...6; 1...2...3...4...5...6; 1...2...3...4...5...6; 1...2...3...4...5...6.

Mashqlarni bajarish jarayonida yozilgan barmoqlarning to'g'ri olinishi, xatostiz ijroga katta e'tibor berish lozim. O'quvchining imkoniyatiga ko'ra yuqori sinflarda mazkur mashqlarni 6 talik va 8 talik, 12 talik va taktlar bilan bajarish mumkin.

"Yuramiz-yuguramiz". Bunda 4 ta nota sekin va 4 ta nota tez chalinadi. Bu mashqni asarning boshidan oxirigacha chalish orqali avval tez-sekin yoki sekin-tez shaklida o'rganiladi. Ushbu mashqlarni ikkala qo'lda baravar bajarish lozim. Agar bu o'quvchiga qiyinchilik tug'dirsa, avval alohida, so'ng baravar bajariladi. Mashqlardan so'ng albatta asarni boshidan oxirigacha sekin tempda, kamida 3 marta chalib, mustah-

kamlash lozim. Asta-sekinlik bilan temp tezlashtirib boriladi. So'ng asarni berilgan tempda chalib, o'quvchi o'ziga qaysi bo'lak qiyinchilik tug'dirayotganini aniqlaydi va shu bo'lak ustida ko'proq ishlaydi.

Kichik mashqlar ijro matnining aniq yodlanishi, barmoqlar xotirasini mustahkamlashga xizmat qilsa, yirik usuldagi mashqlar asarning tez tempda ham bexato, silliq chalinishiga yordam beradi. Asarni o'rganish jarayonida avval kichik, so'ngra yirik mashqlardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Har qanday mashq va gamma aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Aks holda, o'quvchi qancha ko'p shug'ullanmasin, kerakli natijaga erisha olmaydi. O'qituvchi o'quvchiga maqsadni aniq tushuntira bilishi kerak. Asar ustida ishlash chog'i aynan asarning qiyin bo'lgan qismini qayta-qayta ijro ettirish kutilgan natijani bermaydi. Bunday payt, albatta, kamchiliklar sababini aniqlab, uni bartaraf etish uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan mashq va usullardan foydalanish zarur.

Har tahliliy davomida o'quvchiga asarni nazariy jihatdan to'liq tushuntirib, uning oldiga aniq vazifa qo'yib, kerakli ko'rsatmalar berish lozim. Agar o'quvchi unga berilgan vazifa va kutilayotgan natijani to'liq tasavvur qila olsa, dars payti hamda mustaqil ishlash jarayonida ko'zlagan maqsadga erishadi. Xatolarini o'quvchiga aniq tushuntirib, ko'rsatib berish — xatoni tez bartaraf qilishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, o'quv davrlari orasida ta'ullar mavjud. Bu paytda hamma o'quvchilar ham o'z ustida mustaqil shug'ullanmaydi. Shundan so'ng har qanday sozandaning texnik imkoniyati sezilarli darajada pasayadi. Agar o'quvchida etyudlarni chalish ongli ravishda zarurat darajasiga aylansa, bu kelajakda ijrochilik mahoratini shakllantirib, uni saqlay olish imkonini beradi. Shuning uchun ham ijrochilik faoliyatida etyudlarning ahamiyati beqiyos.

Nazokat O'TAYEVA,
O'zbekiston davlat konservatoriyasi konsertmeysteri

Sinab ko'ring

Savodxonlik daqiqasi

Ushbu metod ta'lim jarayonida o'quvchilar uchun qulaylik yaratadi. Shuningdek, o'qituvchi-pedagoglarni o'z ustida ishlash, ijodiy izlanish va darslarga yangicha yondashishga undaydi.

Buning uchun o'quvchilarning "savodxonlik daftari", oddiy bo'r va yozuv taxtasi kerak bo'ladi. Aksariyat o'quvchilar yuqori sinfga, ya'ni 5-sinfga o'tganlarida so'zlarni to'g'ri yoza olmaydilar, bu esa muammo tug'dirishi turgan gap. O'quvchilardagi bu muammolarni hal qilish uchun har darsda "Savodxonlik daqiqasi"ni o'tkazish yaxshi natija beradi. Masalan:

— talaffuzda bir tovush tushib qoladigan yoki boshqacha talaffuz qilinadigan so'zlar: kibr, sabr, sehr, qism, dard, mehr, g'isht, taxt, payvand;

— qo'sh undoshli va qo'sh unlili so'zlar, arab va fors tilidan kirib kelgan so'zlar: ma'rifat, badiiy, jur'at, taalluqli, manfaat, trassa, tonna, mashaqqat;

— boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar: krossvord, kompyuter, biznes, internet.

Bu metod ham o'yin, ham bilimni kuchaytirishga xizmat qiladi. Chunki quyi sinfdan endigina yuqori sinfga qadam qo'ygan o'quvchilar hali o'yindan yuz o'girmagan bo'lishadi. Shu kabi ta'limiy o'yinlar orqali ularning fanga qiziqishlarini kuchaytiramiz.

Agar har darsda 3 tadan so'zni to'g'ri yozishga muvaffaq bo'linsa, yil davomida 5-sinf o'quvchilari (204 soat) $204 \times 3 = 612$ ta so'z, 6-sinf o'quvchilari (170 soat) $170 \times 3 = 510$ ta so'z, 7-sinf o'quvchilari esa (102 soat) $102 \times 3 = 306$ ta so'zni to'g'ri yoza oladigan bo'ladi. Bu esa o'qituvchiga yozuv daftarlarini qiynalmay, tez tek-

shirish imkonini beradi. O'quvchilarda esa savodxonlik ko'nikmasi shakllanadi.

Qolaversa, o'quvchilar ona tilimizning beqiyos imkoniyatlaridan oqilona foydalanishlari uchun doimiy nazoratni kuchaytirish va bu borada ularning qobiliyatlarini aniqlash hamda shakllantirish, yozma kamchiliklarini bartaraf etish uchun tez-tez diktantlar olib turish maqsadga muvofiqdir. Qarabsizki, o'quvchilarda ona tilini e'zozlash mas'uliyati shakllanadi. Bu esa o'quvchilarning so'zlarni ikkilanmay yozishi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirishga yordam beradi.

Muattar TO'RAXO'JAYEVA,
Qo'rg'ontepda tumanidagi
25-umumta'lim maktabi
o'qituvchisi

Fikr, mulohaza, taklif

OTMlar reytingi:

Asl holatni ko'rsatib berolganmi?

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan mamlakatimizdagi 57 ta oliy ta'lim muassasasining reytingi e'lon qilindi. Reyting boshida har doimgidek O'zbekiston Milliy universiteti turgan bo'lsa, ro'yxatni Jizzax davlat pedagogika instituti yakunlab bergan. Reytingdan yurtimizdagi xalqaro universitetlarning filiallari joy olmagan.

O'zbekiston OTMlari reytingiga nazar tashlar ekanman, meni, avvalo, ushbu reytingni shakllantirishda foydalanilgan baholash metodikasi qiziqirdi. Shu o'rinda tashkilotchilarga o'zlarining saytlarini juda chiroyli, sodda, izlagan ma'lumotni oson topib oladigan qilib tashkillashtirib qo'yishgani uchun tashakkurlarimni bildirib o'taman. Reyting metodikasiga keladigan bo'lsak, OTMlar reytingi uchta yo'nalishga bo'lingan holda aniqlangan:

1) professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati — 40 ball;

2) o'quv-metodik ishlar va o'qitish sifati — 30 ball;

3) talabalarning bilimi va bitiruvchilar sifati — 30 ball.

Metodika yo'nalishidagi ayrim holatlarga o'zinning munosabatimni bildirib o'tsam:

1) **Professor-o'qituvchilarning ilmiy faoliyati.**

• Mezonda OTM professor-o'qituvchilarning bilim darajasini baholash degan bandeda ushbu yo'nalishga 4 ball ajratilgan, shundan ikki bali xorijiy tillarni bilish, qolgan ikki bali esa AKTni bilish uchun. Professor-o'qituvchining o'z fani bo'yicha bilimi-chi? Aksariyat OTMlardagi mutaxassislik fanlaridan kiradigan professor-o'qituvchining bilim darajasi haminqadar bo'lib yotibdi-ku, uni hisobga olish kerak emasmi?

• Ilmiy tadqiqot ishlarining samaradorligi degan bandeda umumiy 4 ball ajratilgan bo'lib, shundan 2 bali chop etilgan monografiyalar, 1 bali ixtiro, foydali model, sanoat namunalari, seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar, qolgan 1 bali esa AKTga oid dasturlar, elektron ma'lumotlar bazasi uchun olingan guvohnomalar, mualliflik huquqi bilan himoya qilingan materiallar uchun. Ushbu band reyting tizimida eng no'noq tuzilgan band bo'libdi. Sababi birinchidan, ilmiy tadqiqot ishining samaradorligi monografiya bilan belgilanmaydi, ilmiy maqolalar bilan belgilansa, tushunsa bo'lar edi, vaholanki, maqolalar uchun alohida ball ajratilgan. Qolaversa, keyingi ikkita kichik bandlarni har bir OTMga nisbatan tatbiq etib bo'lmaydi. Masalan, AKTga oid dasturlarni O'zbekiston davlat konservatoriyasi qanday ishlab chiqardi yoki Nukus davlat pedagogika instituti professor-o'qituvchilari sanoatga oid qanday ixtiro qila oladi? Xullas, reytingning ushbu qismi ancha xom, buni soha mutaxassislari bilan yaxshilab kelishgan holda shakllantirish kerak.

• Professor-o'qituvchining ilmiy saholiyati uchun 3 ball ajratilgani holda, alohida bandeda dunyoning nufuzli 1000

taligiga kirgan OTMlarda daraja olgan professor-o'qituvchilar uchun ham 3 ball ajratilgan. Bu yerda bir o'qituvchi ikki bandga tushgan holda baholanmoqda. Reyting nuqtayi nazaridan bu to'g'ri emas. Eng to'g'ri yo'l: umumiy salohiyat uchun ajratilgan ballning qanchadir miqdorini xorijda ilmiy daraja olganlar uchun ajratish kerak edi.

2) **O'quv-metodik ishlar va o'qitish sifati.**

• OTMlarda ta'lim berish sifati darajasi va ijtimoiy-ma'naviy muhit degan bandga jami 7 ball ajratilgan.

Shundan 2 bali ta'lim olish uchun yaratilgan sharoitlar — meni eng hayratlantirgan joyi mana shu band bo'ldi. To'liq davlat tomonidan ta'minlanadigan OTMlarning ta'lim uchun yaratilgan shart-sharoitini qanday qilib baholash mumkin? O'zbekistondagi men biladigan aksariyat universitetlarda laboratoriya xonalari shu darajada xarobiki, bu dargohni OTM deysigina til bormaydi. Mavjud asbob-uskunalarning aksariyati (barchasi desa ham bo'ladi) eskirib ketganidan ularni ishlatib bo'lmaydi. Universitet o'z holicha o'zining ta'lim berish uchun sharoitini ta'minlay olmaydi-ku, qaysi mantiq bilan uni baholash mumkin? Avval OTMlarni barcha o'qitish jihozlari bilan ta'minlab qo'yib, undan keyin ana shu imkoniyatlardan ta'limda foydalanilayotgani baholansa, ayni O'zbekiston holati uchun adolatli bo'lar edi.

• 2 ball darslarning sifati uchun ajratilgan. Bu sifatni kim belgilaydi? So'rovnomada qatnashgan talabalar belgilar ekan! Bunisi endi kamchilik emas, professional xato! Qanday qilib akademik darajaga ega bo'lmagan talaba professor-o'qituvchining dars sifatini baholashi mumkin? Masalan, men "Kladistik va evolyutsion taksonomiya" mavzusida bergan darimni biologiya yo'nalishida o'qiyotgan talaba qanday baholashi mumkin? Mening mavzuga oid eng so'nggi materiallar berayotganimni, ilmiy nuqtayi nazardan talabaga eng kerakli qismini o'rgatayotganimni talaba qanday qilib ajrata oladi? Yoki dars sifati deyilganda talabalarning davomati, formada kelishlari, o'qituvchining darsga umuman aloqasi bo'lmagan bir darsga qog'ozlarining mavjudligi, darsda kerak bo'lsa-bo'lmasa, turli interfaol metodlarni qo'llashi tushuniladimi? Aslida, darslarning ilmiylik sifati o'z sha soha bo'yicha professional mutaxassis baholasa, darsning tashkiliy, samaradorlik sifatini talaba mavzuni o'zlashtira olishi, o'rganayotganlarini amalda qo'llay bilishi kabi mezonlar asosida baholash lozim.

• 1 ball talabalar bilimni xolisona baholash uchun yaxshi mezon, lekin bahoni talabalar beradi. Mantiqan yanglish yo'l. Chunki biror fandan past baho olgan talaba professor-o'qituvchi meni adolatli baholadi yoki turli korrupsion yo'llar bilan yuqori baho olgan talaba professor-o'qituvchi meni adolatsiz baholadi, deysigina ishonmayman.

• 2 ball OTMdagi ijtimoiy-ma'naviy muhit uchun. Reyting tuzuvchilar buni qanday aniqlamoqchi ekanligiga hayronman! Ma'naviyat soatlari o'tilishi, mahallada tadbir qilinayotganligi, majlislarda tushirilgan rasmlar bilan aniqlashmoqchimi? Xullas, mana shu band eng noprofessional band bo'libdi.

• Hisobot yilida OTM professor-o'qituvchisi tomonidan yozib tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalari uchun 8 ball ajratilgan. Shundan 6 ball darsliklar, 2 ball o'quv qo'llanmalari uchun. Bir qarashda normal, lekin bu real baholashdan biroz uzoq mezon. Boisi darslik yozish uchun muallif ham sohasining professional mutaxassisi, ham pedagog, ham akademik yozish qobiliyatiga ega kadr bo'lishi kerak. Qolaversa, darsliklar har yili yozilaverilmaydi. Albatta, bu o'rinda gap sifati darsliklar haqida ketmoqda. Shu bois hisobot yilida emas, balki so'nggi besh yillikda chop etilgan darsliklarni hisobga olish bu o'rinda to'g'ri bo'ladi.

3) **Talabalarning bilimi va bitiruvchilar sifati.**

• Ushbu yo'nalishdagi bandlarning deyarli barchasi e'tirozga loyiq. Jumladan, 9 ball talabaniy bilim darajasi uchun ajratilgan. Bu nazorat ishlari orqali aniqlanadi, deyilgan. Naqadar eskirgan va o'zini umuman oqlamaydigan uslub! Talabaniy bilimi ushbu bilimni qay darajada ishlata olishi, hosil qilgan ko'nikmasi bilan baholanishi kerak emasmi? Bitiruvchilarning ishga joylashish darajasi ham 9 ballik sistemada baholangan. Endi bu alohida mavzu. Bizning OTMlar bitiruvchilari qanday qilib ishga joylanishini hammamiz juda yaxshi bilamiz. Talaba bitirmasdan oldin istagan muhri bor har qanday joydan shartnoma qog'oziga muhr bostirib kelsa, kifoya, ish bilan ta'minlangan hisoblanadi. Mana shu holat ta'lim tizimining eng og'riqli qismidir. Bu borada ham xalqaro tajribaga e'tibor qaratish kerak, albatta.

Xulosa

Fikrimcha, reyting tuzishning metodik mezonlari ancha bo'sh tayyorlangan. Ularda nimalar aks etishi kerak edi, aslida? Avvalo, OTMdagi tayyorlanib chiqarilayotgan kadrlarga real bozordagi talab baholanishi lozim edi. Boisi ko'plab bitiruvchilarning o'z sohasi bo'yicha yashash joyidan ish topishga qiynaladi. Yoki ayrim yo'nalishlarning hozirgi vaqtda umuman keragi yo'q. Masalan, Farg'ona davlat universitetida agronomi-

ya (anorchilik) degan bakalavr yo'nalishi mavjud. Ushbu yo'nalishda to'rt yil o'qigan talaba anorchilik bo'yicha oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lib yetishadi. Nima deb o'yaysiz, bu qay darajada bozorboq kadr? Umuman, anorchilikni o'rganish uchun to'rt yil umri sarflash arziydimi? Bu yo'nalishni bitirgan kadrlar qayerda ishlaydi?

Talabalarni o'qitishda mutaxassislik fanlarining salmog'i ham alohida baholanishi lozim edi. Boisi bizda nomutaxassis fanlarga haddan ortiq ko'p vaqt ajratiladi va natijada kadrlar o'zi bilishi kerak bo'lgan sohalar qolib, boshqa narsalarni o'rganishga ko'p vaqt sarflaydi.

Eng muhimi, dars jarayonlarini tashkil etishda, fanlarni o'qitishda asos bo'ladigan o'quv, namunaviy dasturlarning hozirgi real hayotga qay darajada mosligi umuman baholashga kiritilmagan. Aslida, bu eng asosiy mezon bo'lishi shart edi. Birgina misol keltirib o'taman, masalan, bizning biologiya yo'nalishida o'qitiladigan fanlarda 40—50 yil oldingi ma'lumotlar, ancha eskirgan biologik o'rganish usullari o'rgatiladi. Bioinformatika, genomika, biomuhandislik, epigenetika kabi ayni vaqtdagi eng dolzarb biologik fanlar o'qitilmaydi. O'qitilasa ham, u yerda hech qanday yangi bir narsa o'rganishning imkoni yo'q, sababi bunaqa fanlarni o'qita oladigan mutaxassislarimizning o'zi yo'q. Yoki informatika yo'nalishlarida hali-hanuz Delphi dasturlash tili o'qitiladi, bu kimga kerak, qayerda ishlatiladi hozir, degan savollarga esa javob topib bo'lmaydi.

Reytingdagi mantiqsizliklardan misollar:

Umumiy reytingga e'tibor beradigan bo'lsangiz, birinchi o'rinda turgan O'zbekiston Milliy universitetining umumiy bali 100 ballik tizimda 69,02 ni tashkil etadi. Bu degani, mamlakatning eng oldi universitetidagi holat qoniqarli, ya'ni uch bahoga arziyidigan darajada. Hattoki yaxshi emas, a'lo darajadagi OTM esa bizda umuman yo'q! Ushbu noprofessional reytingning o'ziyoq bizdagi OTMlarning jahon standartlariga naqadar javob bera olmasligini ko'rsatib turibdi.

Yana bir jihatga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Farg'ona davlat universiteti (FarDU) reytingda 46-o'rinni egallagan (men shu OTMdagi o'qiganman, keyinchalik ishlaganman). FarDUda xorijiy tilda o'qitiladigan kurslar soni 0 ta deb ko'rsatilgan. Vaholanki, o'tgan hisobot yilida OTMdagi 18 nafar xorijlik professor-o'qituvchi dars berib ketishgan. Buni qanday tushunish mumkin? Xorijiy universitetlardan kelgan o'qituvchilar o'zbekcha dars o'tib ketishganmi? Agar OTMdagi xorijiy tilda o'qitiladigan birotta kurs tashkil etilmagan bo'lsa, xorijiy mutaxassisi jalb qilishdan qay darajada foyda bor? Nega bu narsa reyting baholash tizimida aks etmagan?

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkin, mamlakat OTMlari reytingini shakllantirish juda ijobiy holat, buni har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak. Shu bilan birga, jarayonni tashkil etishdagi kamchiliklarni, noprofessional jihatlarini vaqt o'tishi bilan bartaraf etib borish yo'llarini izlash lozim.

Baxtiyor SHERALIYEV,
Xitoy Xalq Respublikasi Chongqing
shahridagi Janubi-g'arbiy
universiteti doktranti

Sarvar Azimov fenomeni shundaki, u kommunistik g'oyaga sidqidildan ishongan, lekin bu ishonch uning milliy qadriyatlariga hurmat-ehtiromini zarracha susaytirmagan.

Katta soddadil odam

Yoxud "Sarob"dan "Qonli sarob" gacha

1

Sarlavhani "Katta odam" deb qo'nganimga, aniqki, hech kim e'tiroz bildirmasdi. Sarvar Azimov katta odam ekanligi barchaga kunday ravshan. Lekin "sodda, soddadil" degan so'z... Marhum oqsoqol arbobimiz va adibimizga nisbatan biroz g'alatroq eshitiladi, hoynahoy. Lekin sirdan qaraganda shunday. Soddadillik jibilliy, ya'ni tug'ma soddadillik buyuklikning ilk masallig'i, kibr-u manmanlik esa uning kushandasi. Bu unchalik yangi gap emas esa-da, shu o'rinda joiz. Buyuk Servantning Don Kixoti soddadil edi, ishonuvchan edi, xayolidagi narsalarni bor deb hisoblar va o'z xayolidagi voqea-hodisalarga dildan ishonar va qat'iy amal qilardi. Aksar odamlar uning ustidan kulishadi, uni maxsara-yu mazaxga sazovor go'l xayolparast deb hisoblaydilar. Lekin XIX asrda bir ziyoli kitobxon, agar insoniyat hayoti tugab, Yaratganga ro'baro' bo'lganda, Yaratgan undan hisob-kitob talab qilganda, insoniyat Don Kixotni ko'rsatardi va shu javob yetarli bo'lardi, deydi. Bu kitobxon olamshumul adib Fyodor Dostoyevskiy edi.

Sarvar Azimov hozir mustabid deb atal-yotgan, lekin Xrushevch "otpepl"idan keyin sal odamshinavanda turq kasb etgan tuzumga astoy-dil, sidqidildan xizmat qildi, uning tashqi ishlar sohasida eng baland, marshallik mavqeyiga erishdi.

Hayot, dunyo g'oyalar oqimidan iborat. Kim qanday g'oyaga ishonadi, uning o'zi, atrof-muhit va davlat siyosatiga bog'liq. Mustabid tuzum behudaga totalitar deyilmaydi. Inson ongining barcha puchmoqlarini egallash, boshqa birorta g'oyaga kichik bo'lsa-da, tirgish qoldirmaslik — bu tuzumning tonuq belgisi edi. Odami boshqarish, uni Chingiz Aytmatov keyinchalik, manqurt deb atagan holga solishga urinish edi bu. Tuzum g'oyasi hamma va har bir kishi uchun e'tiqodga aylanishi majburiy edi. Lekin odami to'liq boshqarib bo'lmaydi, barchani manqurtga aylantirib ham. Tilida bir g'oya, dilida bir g'oya bo'lganlar, vaziyatga moslanuvchilar qancha edi. "Nega e'tiqodimni o'zgartirdim?" degan masala shunday odamlar uchun ediki, bular safi-ga Sarvar Azimovni qo'shib bo'lmaydi. E'tiqodni o'zgartirishni, istang, yaxshi, istang, yomon deng, lekin u Sarvar Azimovga to'g'ri kelmaydi.

Shu o'rinda kommunistik e'tiqod uchun o'zini qurbon qilgan jabrdiyda zot, sho'ro tuzumi davrida qattiq targ'ib qilinadigan "Po'lat qanday toblandi" romani muallifi Nikolay Ostrovskiyning quyidagi so'zlari ayni muddao: "Odam biror chinamak g'oya tevaragiga jipslashgan taqdir-dagina odamga aylanadi. Shunday taqdirda odam bo'lak-bo'lak bo'lib: qorni, jigari, tanasi bilan emas, balki butun vujudi bilan yashaydi. Aslini olganda odam xuddi shu narsadan boshlanadi. U xuddi shu narsa bilan kuchlidir. Biroq shunday bir buyuk g'oya borki, bu g'oya bir kishiniga emas, balki bus-butun xalqlarni bahodirga aylantira oladi. Bu kommunizmning buyuk g'oyasi, xalq baxti uchun kurash g'oyasidir".

Qanchalar kuchli va purma'no gaplar. Faqat bu g'oyaning o'tgan asr 90-yillariga kelib misi

1. Ko'chirma shu kitobdan: Xolmuhammedov B. Baxt yulduzi. Toshkent: Yosh gvardiya, 1966. 46-bet.

chiqqani hamda uning asosida tuzilgan superdavlat parchalanib ketgani aytilmasa. "Xalq baxti uchun kurash g'oyasi" dunyoning oltidan birini tashkil etgan hududning kattagina qismida konslagerlar (bu termin ilk marta fashist Germaniyasida emas, sovet Rossiyasida, Lenin rahbarligida o'tgan partiya syezdlari hujjatlarida ishlatilgan) tashkil etilib, unda g'oya bilan kelishmagan millionlab odamlar it azobiga solingan aytilmasa.

Lekin shunga qaramay, bu g'oyaga astoy-dil, qalbdan berilgan muhiblar ko'p edi. Shular qatorida Sarvar Azimovni ham ko'ramiz. SSSR yemirilib, mustaqil O'zbekiston Respublikasi e'lon qilinch ham kommunistik partiyani qayta tiklashga urinish, "bu bola (prezident I.Karimov) nima qilyapti, bosmachilar bolalarini qabul qilib, ular bilan gaplashib yuribdi" deyish uchun XX asr Don Kixoti bo'lish lozim, shekilli. Bu soddadillik tarix g'ildiragini ortga burishga behuda urinish, donkixotlik emasmi?

Lekin boshqa tarafdin o'zi ko'nglini bergan g'oyaga bunalchik sadoqat baribir — HURMATGA SAZOVOR.

Lekin (bu endi uchinchi "lekin") bu oqil odam, olim va adib nabotki totalitar tuzumning qonli panjasini ko'rmagan, his etmagan bo'lsa? Ona bir, ota boshqa akasi otashin shoir Hamid Olimjon o'z ajali yoxud tasodifiy falokat bilan emas, kimningdir amalarparastligining qurboni bo'lganini bilmagan bo'lsa? Bu chet el aksilsovetchilarining tuhmati deb ishonganmikan?

Sarvar Azimov ham yozuvchi va dramaturg, ham Hamid Olimjon haqida salmoqli ilmiy asar yozgan olim edi. U yirik davlat arbobi, Sharq mamlakatlari bo'yicha SSSR rahbariyatining nufuzli maslahatchilaridan biri, shunga yarasha muayyan obro' va e'zoz topgan inson edi. U SSSR tarkibidagi O'zbekiston tashqi ishlar ministri (u paytda vazir deyilmasdi) sifatida BMTning yuksak minbaridan turib nutq so'zlagan, bu haqida O'zbekiston xalq shoiri Mirmuhsin "Aziz vatandoshim. Nutq" nomli katta she'r yozib, sarlavha ostida faxr bilan "Sarvar Olimjonovich Azimov Nyu-Yorkda Faxrlashgan Millatlar tashkiloti Bosh Assambleyasida otashin nutq so'zlandi", deb yozilgan she'r shunday tugallangandi:

Aziz vatandoshim, katta minbardan Zulmi fosh etib, xalqni dedingiz. Erksevarlar bo'lsin doimo bardam! G'oyada mamnunmiz, haqni dedingiz.

Sarvar Azimov ushbu yuksak minbardan nutq so'zlagan birinchi o'zbek bo'lgani aniq.

2

XX asr o'zbek adabiyoti xazinasi sarlavhasida "sarob" so'zi ishlatilgan ikki mashhur asarga ega: biri Abdulla Qahhorning "Sarob" romani, ikkinchisi Sarvar Azimovning "Qonli sarob" dramasi. Biri 30-yillar boshlarida, ikkinchisi, asar so'ngida qayd etilganidek, 1961 — 64-yillarda yaratilgan. Oradagi masofa naqd o'ttiz yil. Lekin bu haqida keyinroq.

Hozir Sarvar Azimov haqida ikki og'iz mu-lohaza.

2. Mirmuhsin. Asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. Toshkent, 1981. 48-bet.

Ma'lumki, XX asrdan to'qqiz yildan kamroq qolganda SSSR atalmish imperiya parchalanib, mamlakatimiz mustaqillikka erishdi. Tabiiyki, bu hol bizga butun ma'naviy-madaniy bisotimizga qayta nazar tashlab, boshqa ko'z, istiqloq nuqtayi nazari bilan qarashni taqozo etdi. Istiqloq-gacha bo'lgan davrda ayniqsa, 30 — 60-yillarda yaratilgan asarlar, shu davrda yashagan shoir-u adiblar ijodiga qayta baho berishga to'g'ri kel-moqda. Ijtimoiy vaziyat hamda mafkuraning keskin o'zgarishi, milliy mafkura hayotimizning barcha jabhalarini o'z nurlu qamroviga olishi darajada ediki, ayrimlar o'z e'tiqodini o'zgar-tirib, istiqloqlning bayroqdori bo'lib olgan bir paytda u o'zining kommunistik ideallaridan voz kechmadi. Bu bir tarafdin, imon butunligidan nishona bo'lsa, boshqa tarafdin, yangi tarixiy realikka moslasha olmaslik, ya'ni hayotiy qay-yishqoqlik yo'qligini urg'ulaydi. Yana bu o'sha ideallar gap va qog'o'zda bor-u, hayotda mavjud emasligi, ishlamasligini ko'ra olmaslikni ham ta'kidlaydi.

Bunday hol shu kun nuqtayi nazaridan ham hurmat, ham achinishga loyiq. Kommunistik ideallar tanazzuli S.Azimovday odamlarni chet-lab o'tgandi go'yo.

Sarvar Azimov fenomeni shundaki, u kom-munistik g'oyaga sidqidildan ishongan, lekin bu ishonch uning milliy qadriyatlariga hurmat-eh-tiromini zarracha susaytirmagandi. Uning badiiy va publitsistik ijodi hamda tashkilotchilik fao-liyati bunga yaqqol misol. Shulardan ikki shin-g'li. 1961-62-yillarda nashr etilib, unga o'zbek xalq og'zaki ijodi va "Qutadg'u bilig" muallifi Yusuf Xos Hojibdan boshlab, 1930-yilda taval-lud topgan Jumaniyoz Jabborovgacha bo'lgan yuzlab ijodkorlar asarlarini qamragan besh tom-lik "O'zbek she'riyati antologiyasi" aynan Sar-var Azimov mas'ul muharrirligida dunyo yuzini ko'rgan. Ikkinchisi, uzoq yillik taqiy va quvg'in-dan keyin nashr etilgan birinchi o'zbek roma-ni "O'tkan kunlar" yana aynan Sarvar Azimov tahriri ostida xalqimizga qaytarilgan.

Soddadillik muayyan o'rindarda buyuklik belgisi. Ayniqsa mansab va martaba nuqtayi nazaridan katta mavqega ko'tarilgan odam sod-dadil bo'lsa. Bunday odamlarni zamonaviy Don Kixotlarga mengzash mumkin.

Men Sarvar aka bilan muloqot qilmagan-man, minbarlar, majlislar hay'atida ko'rganman, uzoqdan kuzatganman, xolos. Lekin hamisha bu zotga hurmatim qoim bo'lgan. Bizning avlod BMT Bosh assambleyasi minbariga ko'tarilgan birinchi o'zbek Sarvar Azimov ekanini bilardi va bu bilan faxrlanardi. Adibning deyarli barcha asarlarini o'qigan hamda Hamza nomli hozir-gi Milliy teatr "Qonli sarob" dramasi qoyil-maqom qilib sahnaga olib chiqqanidan xabardor edim. Dramaning radiomontajini bir necha bor tinglab, u haqida juda yaxshi taassurotim shakl-

langan edi. Hozir ham, fikrimcha, bu drama Sarvar Azimov ijodining cho'qqisi va o'zbek dramaturgiyasining yaxshi namunasi, deb his-soblayman.

Shuning uchun bo'lsa kerak, atoqli yozuv-chimiz Odil Yoqubovning chop etilgan xotiralari-da Sarvar Azimov va Abdulla Qahhorga tegishli o'rinda "Sarob" romani va "Qonli sarob" dramasi sirdan bo'lsa-da, taqqoslash fikrini tug'dirdi.

Avvalo, Odil Yoqubov "Xotiralar" idagi te-gishli o'rindarni keltirib, so'ng ularni tahlil qil-sak. Muallif yozadi:

"O'sha davrdan yodimda qolgan eng og'ir esdalik — ustoz Abdulla Qahhorning "Sarob" romani muhokamasi bo'ldi". Adib "eng og'ir esdalik" deyishiga sabab muhokama jarayonida-gi asabiy holat, unda A.Qahhorning shiddatli va hujumkor kayfiyatidir. Gap olishuvdan bir par-cha. S.Azimov deydi:

"— Yana kinoya! Holbuki "Sarob" bugungi kun asari emas. U davri o'tgan asar! Uni hozir nashr etish... nima desam bo'ladi?"


— Dushmanlik bo'ladi! — Yana qalampir sepd Abdulla aka...

— Dushmanlik emas, lekin xato, jiddiy xato bo'ladi bu ishimiz! — dedi Sarvar Azimov".

Tarixiylik prinsipiga asosan, voqea sodir bo'lgan vaqtni belgilaylik. Adib "Tarjimayi hol"idan bilimizki, u kishi ilk marta O'zbe-kiston SSR Yozuvchilar soyuzi pravleniyesi-ning birinchi sekretari bo'lib 1956-1957-yil-larda ishlagan. Demak, voqea 1957-yilda sodir bo'lmoqdaki, bu paytda mustabid Stalin vafot etib, hukmron partiyaning XX syezdi qonxo'r dohiy shaxsiga sig'inishni fosh etgan, bepoyon mamlakatda ozodlik epkinlari esa boshlagan edi.

"To'g'risi, Stalin o'ldi-yu, odamlar ham, olam ham o'zgacha bo'ldi", deb yozadi Habibulla Qodiriy "Otamdan xotira" kitobida qamoq la-gerlarini eslab. Nega Sarvar Azimov, uyushma rahbari "Sarob"ni davri o'tgan asar, uni nashr etish jiddiy xato bo'ladi, demoqda? Chunki bu paytda qatag'onga uchragan milliy ziyolilarimiz qiyinchilik bilan bo'lsa-da, oqlana boshlagan, Habibulla Qodiriy "Otamdan xotira" kitobida buyuk o'zbek adibi Abdulla Qodiriy 1956-yil 9-oktabrda rasmiy ravishda oqlangan edi. "Sar-ob" romanida esa milliy ziyolilarimiz (asarda nomlanishicha, burjua millatchilar) butun kuch va nafrat bilan qoralangan, go'yo fosh qilin-gan edi. Odil Yoqubov eslagan muhokamadan salkam bir yil keyin bosilgan "Ozgina o'zim haqidam" nomli tarjimayi holda A.Qahhor shun-day yozadi: "Dastlabki felyetonlarim, hikoy-alarim bolaligimda qalbimni yaralagan hayotga qarshi o'ch hissi bilan to'lib-toshgan bo'lsa, "Sarob"da o'sha hayotni qaytarishga bel bog'la-gan dushmanlarning boshiga qalbimdagi **g'azab o'tini** (ta'kid bizniki — S.M.) yog'dirishga kirishdim".

3. Odil Yoqubov, Osiy banda. Xotiralar. Qaranoq. Asarlar. T.: O'zbekiston, 2012. 63 — 65-betlar.
4. Qodiriy H. Otamdan xotira. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. 386-bet.
5. "O'zbek tili va adabiyoti masalalari" jurnali. 1960-yil, 4-son. 8-bet.



Romanda g'azab bilan qoralangan odamlar oqlana boshlagach, uni qanday qilib qayta nashr etish mumkin, bu xato, deya fikr yuritadi Sarvar Azimov. Lekin bunday fikrga nomdor muallif mutlaqo rozi emas.

"Abdulla aka go'yo mushtlashmoqchi bo'lganday o'rindan turib ketdi.

— Agar mening asarimni bosish siyosiy xato bo'lsa, Moskva nega bosyapti? Nega o'ttiz yet-tinchi yili janob Stalin qamagan, hatto otishga hukm qilingan yozuvchilarning asarlarini ham bosyapti!

— Qaysi asarlarni aytaysiz? — dedi Sarvar Azimov xuddi javob zarbasi bermoqchi bo'lgan odamday".

Bu yerda Abdulla Qahhor boshqalarga nis-batan bot-bot takrorlaydigan siyosiy demagogi-yaning ustakor namunasi ishlatmoqda, ya'ni o'zini qatag'on qilingan yozuvchilar bilan, asari-ni ularning jabrdiyda asarlari bilan bir qatorga qo'ymoqda. Vaholanki, u qatag'on qilinmagan, aksincha, hamisha tuzumning ardog'ida bo'lgan, davr buyurtmasiga binoan yozilgan "Sarob" res-publika tanlovida mukofotlangan. Yosh adib mukofot evaziga Sovet Ittifoqi bo'ylab sayohat qilib, Leningrad, Moskva, Gorkiy, Qozon kabi shaharlarni ko'rib qaytgan. A.Qahhor "Qachon Maskovga qarab ish qilishni o'rganamiz?" deya dabdabali ritorik savol tashlar ekan, sirdan to'g'riday, mohiyatan tagi puch bu gap Sarvar Azimovday odamni gangitib, nochor ahvolga solib qo'ymoqda.

"Sarvar Azimov xuddi nogiron boladay, ko'zlari jovdirab, menga qaradilar:

— O'zingiz ko'rib turibsiz, — dedilar lablari pirpirab. — Ishlab bo'ladimi shunday odamlar bilan?..."

Mana sizga, katta soddadil odamning mahzun qiyofasi.

Ertasi kuni gazetalarda Sarvar Azimov madaniyat vaziri vazifasiga tayinlangani ha-qida qaror chiqadi. "Kim bilsin, balki, bu qar-orning chiqishida Abdulla Qahhorning shu to'qnashuvi ham sabab bo'lgandir?" deb yozadi Odil Yoqubov "Xotiralar"ida. Haqiqatan ham, 1957-yilda roman nashr etiladi, chunki Ozod Sharofiddinov to'g'ri ta'kidlaganidek, "Sarob" tom ma'nodagi sovet asari edi".

Bizningcha, ushbu to'qnashuvdan to'rt yil o'tgach yaratila boshlangan "Qonli sarob" dramasi yozilishiga shu voqea turkibi bo'lgan bo'lsa, ajabmas.

"Sarob" va "Qonli sarob". Bu ikki asarni na-faqaat "sarob" so'zi, balki ular qalanga olingan odamlar taqdiri va ular kurashgan g'oyalardagi mushtraklik ham bir-biriga yaqinlashtiradi. Oradagi tafavut ham ancha.

Romanda sovet tuzumini qabul qilmay, unga qarshi kurashgan ziyolilarimizning nafrat bil-an tasvirlangan qiyshiq qiyofalarini ko'rsak, drama-da chet ellarga chiqib ketgan shunday mafkuradagi vatandoshlarimizning fojiali ahvo-li va ruhياتi dramatik yo'sinda hamdardlik ila tiklanganiga guvoh bo'lamiz. To'g'ri, dramadagi milliy komitet raisi Mir Alixon, sarkotibi Aslzo-da Saidxon obrazlari talqini "Sarob" romanidagi talqiniga biroz yaqin, lekin qolgan deyarli barcha qahramonlar tarixiy vaziyat qurboni va jabrdiyda-lardir.

Yurtparvar ziyolilarimizga nafrat romanning har bir hujayrasiga singgan, zero, Ozod Sharofid-dinov yozganidek, "aksilingilobiy millatchilar orasida birorta ham jozibador odam yo'q — ular-ning hammasi tubanlikning eng oxirgi nuqtasiga yetgan, bir-birini ko'rolmaydigan, bir-birining tagiga suv quyadigan, maishiy buzuq, maslak-siz, beburd odamlar. Bunday odamlardan faqat 6. Sharofiddinov Ozod. Abdulla Qahhor. "Hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar. Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. 59-bet.



ijrg'anish, hazar qilish mumkin, xolos".

Bu gap asl voqeelikdan ko'ra roman muallifi, ya'ni Abdulla Qahhorning nafratga bo'ktrilgan qalamini ko'proq tavsiflaydi. Biroq g'oyani bad-nom qilmoqchi bo'lsalar, shu g'oyaga chulg'an-gan odamlar yuziga loy chaplaydilar, deydi buyuklardan biri. Bu xuddi "Sarob" romani ha-qida maxsus aytilganday.

Dramaning ilk sahifasidagi yozuvda "Tar-rix 1945—1956-yillar oraliq"ida, xorijiy Sharq mamlakatlarining birida kechadur", deyiladiki, asarda ona yurtini tark etgan vatangadolarning turfa toifasi, biri nafrat, biri shafqat, biri g'am-gusor alam bilan sahnaga olib chiqilgan. Asar so'ngidagi butun zalga taraladigan "Avtorning so'zi"da dramaning badiiy g'oyasi belgilangan: "Xalq deydi, ona yurtning omon bo'lsa, rang-ro'ying somon bo'lmas. Shu aqlga oyoq uzatib, qonli sarob ko'chalarida umrini ko'kka sovur-gan, tilasin(?) kim bo'lmasin, vatangadolar sav-dosidan bir shingil hikoya ko'z nuringiz tushgan asar iymonidir, aziz odamlar!".

Ushbu ko'chirmadagi "asar iymoni" degan jumla anchayin yangi fikr bo'lib, "g'oya" o'rmiga "iymon" qo'llanishi Sarvar Azimov tafakkur tarzi-ning ezgu fitratini, iymoni butunligini ko'rsatadi.

Tan olish joizki, "Qonli sarob" ham sovet mafkurasiga asosida yozilgan asar. Lekin unda muallif o'z qahramonlariga, ayrim istisnolarni aytmaganda, achinadi, ularning foy taqdiriga hamdardlik bildiradiki, ayni shu nuqtada "Qonli sarob" "Sarob" romanidan farqlanadi. Ayniqsa, insoniylik nuqtasida. Romanda mehr va insoniy taft yo'q. Tasvirda inja nazokat yo'q.

Bundan oltin yildan ortiq narida, o'sha 1957-yilda kommunist, ayni paytda millatparvar Sarvar Azimov kommunistik mafkura hukmron-ligi sharoitida "Sarob" bugungi kun asari emas. U davri o'tgan asar", deya haq gapni aytar ekan, hozirgi Istiqloq davrida romanda go'yo fosh etil-gan milliy ziyolilarimiz orzulari ushlagan bir paytda "Sarob" romaniga munosabatimiz qanday bo'lishi kerak? Hali ham uni xudbinlik anatomi-yasini (xudbinlar kimlar — milliy istiqloqlar) badiiy tahlil qilgan asar, deya ko'klarga ko'tarishda hali ham Ozod Sharofiddinovga jo'r bo'lib, "Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidan keyin o'zbek prozasi zabt etgan ik-kinchi cho'qqi", deyishda davom etamizmi? Bu jabrdiyda ziyolilarimiz pok ruhlarini chirqiratis-h bo'lmaydimi?

7. Sharofiddinov Ozod. Abdulla Qahhor. Hayoti va ijodiy faoliyati haqida lavhalar. 77-bet.
8. Azimov Sarvar. Saylanma. Ikki tomlik. 1-tom. T., 1988. 168-bet.

Yana bir gap. Ma'lumki, Sarvar Azimov 1980-yilda ikkinchi marta O'zbekiston SSR Yozuvchilar soyuzi pravleniyesining birinchi sekretari lavozimiga tayinlanadi. Ushbu yillarga doir bir xotirani o'sha paytda "Sharq yulduzi" jurnali tahririyatida ishlagan jurnalist va yozuv-chi Murod Xidir xotirlaydi:

— Tog'ay Murod unda yosh yozuvchi o'zi-ning "Oydinda yurgan odamlar" qissasini olib keldi. Uning yangicha uslubi, undagi obrazlar, xususan, Xo'jayi Xizr haqidagi rivoyatni hazm qilolmagan o'ta hushyor bosh muharrir H.Ab-dusamatov asarni hech chiqarmoqchi emasdi. Bir necha taniqli olim va adiblarni yig'ib, asarni muhokama qildik va aytilgan ijobiy gaplarni protokollashtirib bosh muharrirga ko'rsatdik, foydasi yo'q. Javobi bitta — "ular aytavera-di". Iloj qolmagach, jurnalning mas'ul kotibi, hozir O'zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malik orqali qissani Uyushma rahbari Sarvar Azimov-ga chiqardik. U kishi, ishonasizmi, bir kechada o'qib chiqib "Go'zal asar, zudlik bilan nashr etilsin", deb yozib berdilar. Bosh muharrirning dami ichida qoldi. Qissa bosildi.

Mana sizga, katta odamning didi va mardligi. Men sarlavhani "Katta soddadil odam", deb qo'yar ekanman, bunga ma'naviy haqqim bormi, deya o'ylab qoldim. Ul zot katta odam ekani-ku naqd gap, lekin sodda odam... Soddadil odam. Omon Muxtor "Afilotun" romanida yoz-di: "Ko'ngli yorug', ko'zlari yorug', hammani o'zidek xayrixoh deb o'ylagan — soddadil Fay-zulla Xo'ja". Takror bo'lsa-da, dey, nima, sod-dadillik buyuklikning belgisimi ekan?!

Shoir Berdi Rahmat radiodan qilgan chiqishida eslagandi: "Bir kuni Sarvar aka bilan uyushmadan u kishining uylarigacha yavov gaplashib ketdik.

— Ey, shoir! — dedi Sarvar aka. — Amal-u mansab deb vaqtni o'tkazib yuboribmiz, ko'proq yozish kerak ekan. Yozganing qolar ekan".

Mana sizga qalbida ijod dardi jo'sh urgan qalbi pok odam armoni. Shunda ham Sarvar Azimovdan ikki jildlik asarlar to'plami (barcha yozganlari to'plansa, yana bir-ikki jild qo'shilar, balki) va, eng asosiysi, uni bilgan, tanigan odam-lar qalbida Arbob va adib haqida yorug' yod qoldi. Bu yod mangu bo'lsin.

Suvon MELI

9. Muxtor Omon. Afilotun. Toshkent: Ma'naviyat, 1997. 79-bet.

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan ta'lim TOJIK tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2019-2020-o'quv yilida foydalanishga tavsiya etiladigan darsliklar RO'YXATI


T/ir	Darslik va o'quv qo'llanma nomi	Muallifi	Tavsiya etilgan yil	Ta'minlanish holati
1-sinf				
1	Alifbe (Алифбо)	S.Xo'jaqulov va b.	2019	Bepul
2	Yozuv dafolari	J.Eshonqulov	2019	Bepul
3	O'na tili (Забони модари)	T.Choriev	2019	Bepul
4	O'qish kitobi (Kitobii xonim)	Z.Fayzullayeva va b.	2019	Bepul
5	Matematika	M.Ahmedov va b.	2019	Bepul
6	Matematika dafolari	M.Jumayev va b.	2019	Bepul
7	Atrofimizdagi olam	N.Mamadina va b.	2019	Bepul
8	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2019	Bepul
9	Tasviriy san'at	R.Hasanov	2019	Bepul
10	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Bepul
11	"Kids' English"	M.Irisqulov va b.	2019	Bepul
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2019	Bepul
13	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2019	Bepul
14	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2019	Bepul
2-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2018	Ijara
2	O'na tili (Zaboni modari)	T.Choriev	2018	Ijara
3	O'qish kitobi (Kitobii xonim)	J.Eshonqulov	2018	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Z.Abduraimova	2018	Ijara
5	Matematika	N.Abduraimova va b.	2018	Ijara
6	Atrofimizdagi olam	P.G'ulomov va b.	2018	Ijara
7	Odobnoma	O.Hasanboyeva va b.	2018	Ijara
8	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2018	Ijara
9	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2018	Ijara
10	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2018	Ijara
11	"Kids' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
12	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
13	"Deutsch mit Spaß"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2018	Ijara
14	"Arbeitsheft"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2019	Ijara
15	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2018	Ijara
16	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
17	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2018	Ijara
3-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	O'na tili (Zaboni modari)	T.Choriev	2019	Ijara
3	O'qish kitobi (Kitobii xonim)	Y.Azimov	2019	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	N.Sergeyeva va b.	2019	Ijara
5	Matematika	S.Burhonov va b.	2019	Ijara
6	Tabiiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2019	Ijara
7	Odobnoma	M.Xolqova va b.	2019	Ijara
8	Tasviriy san'at	M.Isoqova va b.	2019	Ijara
9	Musiqi	H.Nurmatov va b.	2019	Ijara
10	"Kids' English"	S.Xan va b.	2017	Bepul
11	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
12	"Deutsch mit Spaß"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2017	Bepul
13	"Arbeitsheft"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2019	Ijara
14	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2017	Bepul
15	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
16	Texnologiya	X.Sanaqulov va b.	2019	Ijara
4-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2017	Ijara
2	O'na tili (Zaboni modari)	T.Choriev	2017	Ijara
3	O'qish kitobi (Kitobii xonim)	J.Eshonqulov va b.	2017	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Karimova va b.	2016	Ijara
5	Matematika	N.Bekboyeva va b.	2017	Ijara
6	Tabiiatshunoslik	A.Bahromov va b.	2017	Ijara
7	Odobnoma	M.Xolqova va b.	2017	Ijara
8	Musiqi	O.Ibrohimov	2017	Ijara
9	Jismoniy tarbiya	K.Mahkamjonov va b.	2017	Ijara
10	Texnologiya	I.Mannopova va b.	2017	Ijara
11	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
12	"Kids' English"	S.Xan va b.	2016	Bepul
13	"Workbook"	S.Xan va b.	2019	Ijara
14	"Deutsch mit Spaß"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2016	Bepul
15	"Arbeitsheft"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2019	Ijara
16	"Hirondelle"	S.Rahmonov va b.	2016	Bepul
17	"Cahier d'exercices"	S.Rahmonov va b.	2019	Ijara
5-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2015	Ijara
2	Tojik tili (Zaboni tojikii)	T.Choriev	2015	Ijara
3	Adabiyot (Адабиёт)	Y.Azimov	2015	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	Y.Musurmonova	2016	Ijara
5	"New Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Z.Qiyomova va b.	2017	Bepul
7	"Je parle français"	A.Nosirov va b.	2017	Bepul
8	Tarixdan hikoyalar	U.Jo'rayev va b.	2015	Ijara

9	Matematika	B.Haydarov	2015	Ijara
10	Informatika	D.Kamoliddinova	2016	Ijara
11	Botanika	O'.Pratov va b.	2015	Ijara
12	Geografiya (Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi)	P.G'ulomov va b.	2015	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Musiqi	A.Mansurov va b.	2015	Ijara
15	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2015	Ijara
16	Tasviriy san'at	T.Qo'ziyev va b.	2015	Ijara
6-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	H.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Tojik tili (Zaboni tojikii)	M.Kabirov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Адабиёт)	S.Se'diyev va b.	2017	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	G.Gasilova va b.	2017	Ijara
5	"Teens' English"	S.Xan va b.	2018	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2018	Ijara
7	"Voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2018	Ijara
8	Tarix (Qadimgi dunyo)	A.Sa'dullayev va b.	2017	Ijara
9	Matematika	M.Mirzashmedov va b.	2017	Ijara
10	Fizika	N.Turdiyev	2017	Ijara
11	Biologiya (Botanika)	O'.Pratov va b.	2017	Ijara
12	Geografiya (Matematik va okenlar tabiiy geografiyasi)	A.Soatov va b.	2017	Ijara
13	Vatan tuyg'usi	X.Sultonov va b.	2015	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Bolayev va b.	2017	Ijara
15	Musiqi	S.Begmatov	2017	Ijara
16	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
17	Tasviriy san'at	Q.Mirahmedov va b.	2017	Ijara
7-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
2	Tojik tili (Zaboni tojikii)	A.Vohidov va b.	2017	Ijara
3	Adabiyot (Адабиёт)	Z.Payzullayeva va b.	2017	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Silombekova va b.	2017	Ijara
5	"Fly High English"	S.Xan va b.	2019	Ijara
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2019	Ijara
7	"Bon voyage"	S.Umarova va b.	2019	Ijara
8	O'zbekiston tarixi	A.Muhammadjonov	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	T.Salimov va b.	2017	Ijara
10	Algebra	Sh.Alimov va b.	2017	Ijara
11	Geometriya	A.A'zamov va b.	2017	Ijara
12	Fizika	P.Habibullayev va b.	2017	Ijara
13	Kimyo	I.Asqarov va b.	2017	Ijara
14	Biologiya (Zoologiya)	O.Mavlonov	2017	Ijara
15	Geografiya (O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi)	P.G'ulomov va b.	2017	Ijara
16	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	M.Qarshiboyev va b.	2015	Ijara
17	Informatika va axborot texnologiyalari	B.Bolayev va b.	2017	Ijara
18	Texnologiya	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Tasviriy san'at	A.Sulaymonov va b.	2017	Ijara
20	Musiqi	O.Ibrohimov va b.	2017	Ijara
21	Jismoniy tarbiya	T.Usmonxo'jayev va b.	2017	Kutubxonaa fondi
8-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova	2019	Ijara
2	Tojik tili (Zaboni tojikii)	T.Choriev va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Адабиёт)	A.Qamrazoda va b.	2019	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	M.Rojanova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Assalom, Deutsch!"	N.Suxanova va b.	2014	Bepul
7	"Le nouveau voyage en France"	Z.Abdushukurova va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	U.Jo'rayev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	R.Farmonov va b.	2019	Ijara
10	O'zbekiston davlati va huquq asoslari	O.Karimova va b.	2019	Ijara
11	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
12	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
13	Geometriya	A.Rahimqoriyev	2019	Ijara
14	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	R.Qo'chqor va b.	2015	Ijara
15	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
16	Kimyo	I.Asqarov va b.	2019	Ijara
17	Biologiya (Odam va uning salomatligi)	O.Mavlonov va b.	2019	Ijara

18	Geografiya (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)	P.Musayev va b.	2019	Ijara
19	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Bolayev va b.	2015	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	O'.Tohirov va b.	2019	Ijara
9-sinf				
1	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	A.Rafiyev va b.	2019	Ijara
2	Tojik tili (Zaboni tojikii)	M.Kabirov va b.	2019	Ijara
3	Adabiyot (Адабиёт)	J.Hamroyev	2019	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	R.Usmonova va b.	2019	Ijara
5	"Fly High English"	L.Jo'rayev va b.	2014	Bepul
6	"Deutsch"	M.Dalaxo'jyeva va b.	2014	Bepul
7	"D'un Etat a l'autre"	S.Rahmonov va b.	2014	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	S.Tilabayev va b.	2019	Ijara
9	Jahon tarixi	M.Lafasov va b.	2019	Ijara
10	Konstitutsiyaviy huquq asoslari	G.Tansiqboyeva va b.	2019	Ijara
11	Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari	O.Musurmonova va b.	2015	Ijara
12	Iqtisodiy bilim asoslari	E.Sariqov va b.	2019	Ijara
13	Algebra	Sh.Alimov va b.	2019	Ijara
14	Geometriya	B.Haydarov va b.	2019	Ijara
15	Fizika	P.Habibullayev va b.	2019	Ijara
16	Kimyo	I.Asqarov va b.	2019	Ijara
17	Biologiya (Sitologiya va genetica asoslari)	A.Zakriyoyev va b.	2019	Ijara
18	Geografiya (Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi)	A.Qayumov va b.	2019	Ijara
19	Informatika va hisoblash texnikasi asoslari	B.Bolayev va b.	2015	Ijara
20	Chizmachilik	I.Rahmonov va b.	2019	Ijara
21	Texnologiya	Z.Sattorova va b.	2019	Ijara
10-sinf				
1	Tojik tili (Zaboni tojikii)	M.Kabirov va b.	2017	Ijara
2	Adabiyot (Адабиёт)	S.Se'diyev va b.	2017	Ijara
3	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2017	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Silombekova va b.	2017	Ijara
5	"English"	F.Rashidova va b.	2017	Bepul
6	"Deutsch"	Sh.Inyaminova va b.	2017	Bepul
7	"France"	Z.Davronova va b.	2017	Bepul
8	O'zbekiston tarixi	Q.Rajabov va b.	2017	Ijara
9	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2017	Ijara
10	Dunyo dinlari tarixi	Z.Islomov va b.	2017	Ijara
11	Davlat va huquq asoslari	V.Kostetskiy	2017	Ijara
12	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2017	Ijara
13	Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzashmedov va b.	2017	Ijara
14	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Taylorov va b.	2017	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2017	Ijara
16	Organik kimyo	A.Mutalibov va b.	2017	Ijara
17	Biologiya	A.G'afurov va b.	2017	Ijara
18	Geografiya (Amaliy geografiya)	Sh.Sharipov va b.	2017	Ijara
19	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik	Sh.Ubaydullayev va b.	2017	Ijara
11-sinf				
1	Tojik tili (Zaboni tojikii)	M.Kabirov va b.	2018	Ijara
2	Adabiyot (Адабиёт)	J.Hamroyev va b.	2018	Ijara
3	O'zbek tili (Rus va qardosh tillar uchun)	X.Muhiddinova va b.	2018	Ijara
4	Russkii xzsk (O'zbek va qardosh tillar uchun)	S.Silombekova va b.	2018	Ijara
5	O'zbekiston tarixi	N.Jo'rayev va b.	2018	Ijara
6	Jahon tarixi	Sh.Ergashev va b.	2018	Ijara
7	Dunyo dinlari tarixi	Z.Islomov va b.	2018	Ijara
8	Ma'naviyat asoslari	V.Qo'chqorov va b.	2018	Ijara
9	Davlat va huquq asoslari	N.Ismatova va b.	2018	Ijara
10	Tadibkorlik asoslari	U.G'ofurov va b.	2018	Ijara
11	Matematika (Algebra va analiz asoslari, geometriya) 1-2-qism	M.Mirzashmedov va b.	2018	Ijara
12	Informatika va axborot texnologiyalari	N.Taylorov va b.	2018	Ijara
13	Biologiya	A.G'afurov va b.	2018	Ijara
14	Astronomiya	M.Mamadajonov	2018	Ijara
15	Fizika	N.Turdiyev va b.	2018	Ijara
16	Umumiy kimyo	S.Masharipov va b.	2018	Ijara
17	"English"	F.Rashidova va b.	2018	Ijara
18	"Deutsch"	Sh.Inyaminova va b.	2018	Ijara
19	"Libre opinion"	M.Jo'rayeva va b.	2018	Ijara
20	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik			

Bolani jazolash o'rinlimi?

O'qituvchi va ota-ona munosabati to'g'risida maqola yozish uchun ko'p insonlar bilan suhbatlashdim. Turfa yoshdagi, har xil kasb egalaring, tabiiyki, qarashlari ham turlicha bo'ldi. Bir hamkasbim maktab davrida o'qituvchi va ota-ona munosabatini juda chiroyli tushuntirib berdi:



"6-sinfda o'qirdim. Yaxshi o'qisam-da, biroz to'polonchi ham edim. Kunda, kunora bir qilib chiqarardim. Bir kuni shunday bezoriligimdan jahllangan o'qituvchimiz qattiq jazoladi. Hatto yuzimga bir-ikki shapaloq tortib yubordi. Yuz-ko'zim qizarib ketganidan uyga kirishga qo'rqdim. Otamga bu holatni qanday izohlashni o'ylardim. Chunki otam bunday vaziyatda avvalo meni ayblardi. Bir ayboring borki, ustozing jazolagan, derdi. Noiloj, qilgan noma'gul ishinni aytardim. Keyin otam ham jazolardi. Kattalarning mana shunday yo'l tutgani bois o'qituvchidan dakki eshitmaslikka, darslarni vaqtida tayyorlashga, har bir topshiriqni bajarishga intilardik.

Endi o'zimning farzandlarim o'quvchi, ular ham ba'zan maktabdagi muammoli vaziyatlardan nolib kelishadi. Ammo men o'sha 12-13 yoshimda o'z-o'zimga bolalarimning ustozlari bilan gap-so'z talashmayman, deya so'z berganimni eslayman. Hech bir pedagog bolalarga besabab tambeh bermaydi".

Hamkasbim so'zlariga quloq tutib, ijtimoiy tarmoqlarda o'qituvchini bolani urganlikda ayblagan, izza qilingan videolar chiqib qolsa o'ylanib qolaman. Avvalo, bolaga tarbiya uyda beriladi, maktabda esa mustahkamlanadi.

Qush uyasida ko'rganini qiladi

Bolani urib tarbiyalash kerak, degan fikrdan yiroqmi. To'g'ri, o'quvchiga qo'l ko'targan, uning sha'niga, g'ururiga tegadigan gaplarni aytuvchi, jahlini bosolmaydigan o'qituvchilar ham bor. Ammo turli muhitda tarbiya topayotgan

30-40 nafar bolaga birdek munosabatda bo'lish oson emas.

Psixologlarning ta'kidlashicha, o'smirlarning jismoniy va ruhiy jihatdan ulg'ayishi tezlashib bormoqda. Ularning fiziologik normativlari ham oldingi avlodlarga solishtirganda, ancha ildamlagan. Ana shunday kayfiyatdagi o'smirlar ta'lim berish muallimdan sabr-toqat, pedagogik mahorat va ruhiy yondashuvni talab etadi. Aslida muammolarning birgina sababi, ota-onalarning farzandi oldidagi mas'uliyatini his eta olmasligidir. Mas'uliyat degani, javobgarlikni his qilish, yelkasida muhim vazifalar turganini anglashdir. Bugungi kunda ota-onalar farzandi kelajagi uchun qay darajada o'zlarini mas'ul hisoblaydi? Bu savolni eshitgan borki, "juda yuqori darajada", "hozir aksariyat kishilar farzandining o'qishi, yaxshi yeb-ichib, chiroyli kiyinishiga e'tibor bermoqda", "yaxshi oliy o'quv yurtida tahsil olishi uchun jon kuydirib, chet tillarini o'rganishiga keng yo'l ochib bermoqda", deyishi mumkin. Biroq, mas'uliyat shular bilangina belgilanmaydi. Bola tarbiyasi, xulq-atvori haqida gap ketganda kimdir bu mas'uliyatni maktabga yuklarsa, yana birov ota-ona zimmasida, degan fikrda. Biroq bu vazifani o'zidan soqit qilish yoki loqayd qarash jamiyatimiz uchun qimmatga tushadi. Farzandlarimizga bilim berish barobarida ularga kattalarni hurmat qilish, ustozini e'zozlash, jamoada o'zini madaniyatli tutish kabi sifatlarini o'rgatish juda muhim.

Dilnoza NARZULLAYEVA, Vobkent tumanidagi 21-maktab o'qituvchisi:

— Muallim — buyuk zot. Azalazaldan ustozga yuksak ehtirom ko'rsa-

tilgan. Xo'sh, bugun shogirdlar ustozlar mehnatini munosib qadrlayaptimi?

Butun bir mamlakatning e'tiborida turgan tarbiya o'zani ba'zan yetarlicha qaytib qolayapti. Nahotki, o'quvchi otasidek mehribon kishisiga qo'l ko'tarsa, uni haqoratlasa? Xo'sh, qayerda xatoga yo'l qo'ydik, qayerda bo'shliq paydo bo'ldi?

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqol bejiz aytilmagan. Tarbiya beriladigan maskanda axloq-odob izdan chiqqan bo'lsa, o'quvchi bu yerda nimani o'rganadi. O'qituvchining ozgina qattiqqo'lligini "zulm" deb bilgan ota-bolasining yonini olib, muallimga do'q'ursa, o'spirin yigit qanday qilib ustozini hurmat qiladi? Mahalla-ko'y va faollar jim turishsa, "yangi nag'malar"ning ortib borishiga sababchi bo'lmaydimi?..

Savollar ortidan savol tug'iladi, ammo javobga kelganda, yelkamizni og'ir yuk bosadi. Ehtimol, ota-onalar yig'inida tez-tez yoshi ulug' otaxon-u onaxonlar, imom-xatiblar, mahalla faollari, ibratli oila sohiblari, mehnatidan baraka topayotgan kasb egalari taklif qilinib, ularning suhbatlari ko'proq tinglansa, yoshlar orasida mehr-oqibat, kattalarga, ustozlarga hurmat-e'tibor yo'qolmaydi. Bolalarimizni boshlang'ich ta'limdan boshlab mehr bilan tarbiyalash, shirin so'z bilan o'qishga chorlash zarur. Ular shu kichik yoshidan yomon so'z aytish va tengdoshlarini urib-so'kishga botinolmasligi kerak. Chunki oq qog'ozdek toza bola qalbi faqat ezguliklar, mehr va samimiy hislar-ga loyiq.

Bolaga gapirish havoga so'zlashmi?

Bugungi kunda "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona", "Qo'shning tinch — sen tinch" degan xalq maqollari o'z ahamiyatini yo'qotqanday, nazarimizda. Chunki, har qo'shningizning bolasi noma'qul harakat qilayotganini ko'rsangiz, urushib berolmaysiz, negaki, onasi xafa bo'lib qoladi. "Oldin o'zining bolalariga tarbiya bersin", degan dashnomni ham eshitmay qolmaysiz.

"Qo'shnim eridan bevaqt ayrilgach, 4 bolasini yolg'iz katta qildi. Ro'zg'orni butlayman, deb ancha yillar Qozog'istonda ishladi. Shu orada kenjatoyining yurish-turishi o'zgarib qoldi. Kimlardir uyiga keladigan, uni mashinada olib ketadigan odat chiqardi. So'ng soch-soqol qo'yib, odamlardan o'zini olib qochadigan bo'ldi. Uni bir-ikki marta ogohlantirdim. Bir kuni formadagi odamlar kelib, uning xatti-harakatlari, shubhali uchrashuvlari to'g'risida suhbatlashib, unga biror yaqin kishisining kafiligi kerakligi, ahvol shunday davom etsa, oqibat yomon bo'lishini aytishdi. Shunda men hech ikkilanmasdan shu yig'itxaga kafilman, deb mas'uliyatni o'z bo'ynimga oldim. Shundan keyin har kuni oldimga chaqirib, ro'zg'ordagi mayda-chuyda ishlar, duradgorlik, bog'dorchilik kabi yumushlar bilan mashg'ul bo'ldik.

Mana, hozir qo'li gul usta, mahalladagi kishilarning nimaiki ishi bo'lsa, yordamga shoshiladi. Besh farzandini halol ulg'aytirayapti. Har zamonda dildan suhbatlashib qolsak, "o'shanda siz kafilligimni olmaganingizda, bilmadim, qanday bo'lardi", deb eslab qo'yadi.

Saksonni qoralagan Zarifboy otaning hikoyasi o'ziga to'ldiradi. Ota o'rinda ota sifatida bir o'smirlarning kafilligini olish hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. Nazarimda, bugungi kunda ota-onaning o'z farzandiga nisbatan mas'uliyati kamayib ketganday...

Jazolash... kerakmi?

"Pedagogikada bolani jazolash mumkin emas, deb ta'kidlansa-da, uzoq yillik tajribamga muvofiq, tarbiyada ozroq qattiqqo'l bo'lish kerak. Gap faqat qo'rqitishda emas, bugunning bolasi hech kimdan, hech narsadan tap tortmaydigan bo'lib qoldi. Tan olish kerak, achchiq haqiqat shuki, ko'pgina ota-onalar moddiy to'kinlikni istab, chet ellarda ishlamoqda. Bu yerda bolalari bobo-buvisining qo'lida qolmoqda. Baribir, ota-ona o'rmini hech kim bosolmaydi. Ota-ona bolasidan ko'ngli to'q: pul yuborib turibman, nimaiki kami bo'lsa, to'ldiradigan, deb o'ylaydi, shu bilan o'zini ovutadi. Biroq, o'sib kelayotgan o'smirlarning qalbida kechayotgan nozik hislar, o'zi ham boshqarishni bilmayotgan, bejilov fe'l-atvori yoki dilining tub-tubidagi mehrga tashnalik, ota-onasi bilan kechadigan do'stona munosabat sog'inchi bolani befarq va bemehr qilib qo'yishi mumkin. O'z-o'zidan bola boqimanda va tayyorga ayvor dangasa bo'lib shakllana boshlaydi. Ana undan keyin maktabda ustozining ter-gashi, dashnom berishi yoqmaydi. O'zi xon, ko'lankasi maydon bo'lib qoladi. Men o'z ustida ishlab, mavzu o'zlashtirmagan, uy vazifasini tayyorlamagan bolani jazolayman. Ustimdan arz qilib kelganlarida, jazolaganimning sababini tushuntirib beraman. Ana shundan keyin ota-ona yoki yaqinlari o'z harakatlaridan uyalab qolishadi. Xohlaysizmi, yo'qmi, bolani jazolamasak, u o'zini yig'ishtirib ololmaydi. Aksariyat hollarda jazolash usuli ijobiy natija berishiga amin bo'lganman. Kim nima desa desin, lekin bugungi bolalarni jazolab ham turish kerak, aks holda biz kerakli natijaga erishmaymiz".

Ushbu gaplarni aytayotgan uzoq yillik matematika o'qituvchimiz Rustam aka Miskinov. U kishining qo'lida o'qiganlar bugun katta-katta tashkilotlarning rahbarlari, hisobchi va moliyachilardir. Matematikani shundoqqina miyangga quyib qo'yadilar, derdi matematikaga ixtisoslashgan sinfda o'qiydigan tengdoshlarimiz. Talabchanliklaridan har yili 98 foiz o'quvchilari oliy o'quv yurtiga o'qishga kirardi. Bu kabi muallimlar na-faqat bilimli, mahoratli pedagog, balki kuchli ruhshunos ham bo'ladi. Negaki, har bir bola o'ziga xos xarakterga ega. Ana shu jihatlarni anglagan, unga mos munosabatda bo'la olgan pedagog o'quvchi qalbiga yo'l topadi.

Nobelning tinchlik uchun mukofoti

Uni olishga kimlar haqli?

52 yil davom etgan fuqarolar urushini to'xtatishga muvaffaq bo'lgan Kolumbiya prezidenti Xuan Manuel Santos 2016-yili Nobelning Tinchlik mukofotiga sazovor bo'ldi. 200 mingdan ortiq kolumbiyalikning umriga zomin bo'lgan uzoq yillik to'qnashuv Manuelning fidoyi sa'y-harakatlari tufayli barham topdi. O'shanda Prezidentning xizmatlarini yuksak baholagan Nobel qo'mitasi "Bu mukofot, nafaqat Santos, balki kulfat va qiyinchiliklarga qaramay, tinchlikka erishish umidida yashagan Kolumbiya xalqining matonati ramzi hamdir", degan edi.

Mehnat va izlanishlari yuzaga chiqib, xalq tomonidan e'tirof etilgan kishilarga sovrin yoxud nufuzli mukofot topshirish qadimdan qolgan an'ana. Bugun turli sohalarda joriy etilgan mukofotlarning son-sanog'i yo'q. Ularning har biri o'z o'rni va ahamiyatiga ega, ammo Nobel mukofoti ular orasida eng mashhur va nomdori ekani, shubhasiz.

Shved industrialisti va ixtirochisi Alfred Nobel vasiyatiga ko'ra joriy etilgan Nobel mukofoti beshta yo'nalish bo'yicha har yili o'zining munosib egalari topshiriladi. Mashhur ixtirochining vasiyatida beshta mukofotdan biri tinchlik uchun berilishi qayd etilgan.

Shvetsiyalik ixtirochi mukofot topshirilishi uchun nega aynan Norvegiyani tanlagani hamon jumboqligicha qolmoqda. Ixtirochining bu qarori borasida taxminlar ko'p. Balki Nobel Shvetsiyadan farqli, Norvegiyani qadimdan harbiy yurishlardan xoli, tinch mamlakat bo'lgani bois, mukofot topshirish uchun eng munosib joy deb hisoblagandir. Ammo buning unchalik ham ahamiyati yo'q, muhimi, mukofot qayerda bo'lmasin, dunyo bo'ylab o'zining eng munosib egalari-gina taqdim etiladi.

Nobelning vasiyati

Mukofot asoschisi Alfred Nobelning doimiy tinchlik tarafdori ekanligi uning dinamit ixtiro qilishi va savdo qurollariga katta pul mablag'i tikishiga xalal bera olmagan. U o'zi yaratgan xavfli qurol dushmanlarni qo'rquvga solishi, oqibatda urush, qo'poruvchilik harakatlari va qirg'inlarga chek qo'yilishidan umidvor edi. Ammo, afsuski, ixtiro insoniyatning yovuz maqsadlariga xizmat qildi.

Kunlarning birida Nobelning akasi Lyudvig Sankt-Peterburgda vafot etadi. Uni Albert bilan chalkashtirgan gazetachilar ixtirochini muddatidan ilgari o'ldiga chiqaradi. Erta tongda barcha nashrlarda paydo bo'lgan "Savdogarning o'limi", "Qonga belangan boy", "Dinamit qiroli" kabi sarlavhalar Nobelni gangitib qo'yadi. Voqeadan qattiq ta'sirlangan olim tarixda faqat qonga belangan millonier sifatida qolishdan qo'rqib, darhol huquqshunosni chaqiradi-yu, vasiyat yozishga kirishadi. Uning ham istagi, ham talabiga binoan, o'limidan so'ng ko'p millionli davlati ishonchli bankka qo'yilishi va fond tashkil etilib, tushadigan daromad har yili besh qismga bo'lingan holda mukofot tarzida berilishi vasiyatga kiritildi. Shu tariqa Alfredning orzusi amalga oshib, uning nomi mashhur mukofot asoschisi sifatida tarixga muhurlandi. Bugun dinamit ixtirochisi nomini hamma ham eslay olmasligi mumkin, ammo Nobel mukofotini hatto bolalar ham biladi.

Mukofot joriy etilgan ilk yillarda beshta nominatsiya — kimyo, fizika, tibbiyot, adabiyot va tinchlikni saqlashdagi yutuqlari uchun sovrin topshirilgan. Keyinroq, 1969-yilga kelib Shvetsiya banki nominatsiyalar ro'yxatiga iqtisodiyot yo'nalishini ham kiritishga qaror qildi. Bu yo'nalish uchun har yili Nobel mukofoti topshirilsa-da, sovrin xarajatlari Shvetsiya fondi tomonidan to'lanadi.

Nobelning Tinchlik mukofoti

Tinchlik mukofotini berish qarorini muhokama qilish uchun 6 mintaqaning eng kuchli siyosatchilari o'zaro muzokara olib borgan. Bu masala bo'yicha ko'pgina



qarama-qarshi fikrlar bildirilgan. Axir bir vaqtlar yer yuzida qonli urushlarni keltirib chiqargan, millionlab insonlarning yostig'ini quritgan Adolf Gitler, Benito Mussolini va Iosif Stalinlarning Nobelning Tinchlik mukofoti bilan taqdirlanganligini hamon ko'pchilik hazm qila olmaydi.

Ammo oliy mukofotga loyiq topilganlar orasida tinchlik uchun haqiqatdan munosib hissa qo'shgan kishilar talaygina edi. 2014-yili Vladimir Putin ham Nobelchilar qatoridan joy oldi. Ammo keyingi yili Pokistonlik o'n yetti yoshli Malala Yusufzay Putinni ortda qoldirib, Nobel mukofotining eng yosh sohibiga aylandi. Malalaning is- lom mamlakatlaridagi qizlarning ta'lim olish huquqi uchun olib borgan kurashi jahon e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Mukofotning asl nomzodlari

Norvegiya Nobel qo'mitasi har yili Nobelning Tinchlik mukofoti uchun bir qancha nomzodlar ro'yxatini taklif etadi.

Qoidaga ko'ra, nomzodlar ro'yxati 1-fevralga qadar taqdim etilishi lozim. Qo'mita a'zolari orasidan tanlangan nomzodlar ro'yxati biroz kechikishi va oxirgi muddatdan o'tishi mumkin, biroq Qo'mitaning ilk yig'ilishiga qadar cho'zilmaligi zarur.

Ma'lumki, Tinchlik mukofoti yer yuzida tinchlik o'rnatishga o'z hissasini qo'shgan insonlarga beriladi. Shunday ekan, mukofot uchun nomzodlar soni u qadar ko'p bo'lmaydi. Ammo 2009-yilda nomzodlar soni 209 taga yetib, rekord daraja qayd etilgan. Ahamiyatlisi, nomzodlar haqidagi ma'lumotlar Nobel ustaviga ko'ra sir saqlanadi. Faqat 1901—1956-yillarda nomzodligi qo'yilgan kishilar ro'yxati nashr etilgan. Unda Adolf Gitler singari mashhurlar nomi ham bor edi. Ma'lum bo'lishicha, uning nomzodi 1939-yilda Shvetsiya parlamenti a'zosi Erik Brandt bilan birga qo'yilgan. Biroq Brandt o'z nomzodligiga hech qachon jiddiy qaramagan, hatto, Nevilla Chamberlen nomzodiga norozilik bildirgani uchun soliqqa tortilgan. Shundan so'ng bir necha kun ichida Brandtning nomzodi olib tashlangan. Nashrda qayd etilgan Stalin va Benito Mussolini nomlari ham mashhurlikda Gitlerdan qolishmasdi. Biroq katta urushlarning boshida turgan bu shaxslarni hamma ham Tinchlik mukofotiga loyiq deb hisoblamaydi. Ammo, gap shundaki, yuqoridagi kabi holatlar, xususan, nomzodlar orasida faqat bir kishining qolishi yoki davr taqozosi bi-

lan nomzodlarning yetarlicha bo'lmagani Nobel qo'mitasi a'zolarining tanloviga hojat qoldirmagan.

Mukofot topshirilmaydigan holatlar

Bordi-yu, mintaqalardan mukofotga munosib nomzodlar topilmasa, u shunchaki, hech kimga berilmaydi. Bunday holat tibbiyot yo'nalishi mukofotida besh marotaba, fizika yo'nalishida to'rt marotaba, Tinchlik mukofotida esa undanda ko'proq kuzatilgan. 1974-yili qabul qilingan qoidada mukofot faqat laureatlar hayot bo'lgandagina topshirilishi belgilab qo'yilgan. Ammo 2011-yilda joriy etilgan qoidani buzishga to'g'ri kelgan. Shu yili tibbiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati bo'lgan Ralf Stayman mukofot topshirishidan ikki soat oldin saraton kasalligi bilan hayotdan ko'z yumadi.

Noodatiy nomzod va laureatlar

Nobel mukofoti kamdan kam holatlardagina kimgadir ikkinchi marta topshiriladi. Bunday holat mukofot joriy etilganidan buyon atigi to'rt marta kuzatilgan. Federik Segner kimyo, Djon Bardin fizika, Laynus Poling esa kimyo va Tinchlik mukofotlarining ikki karra sohibi hisoblanadi. Ular qatorida turuvchi Mariya Sklodovskaya-Kyuri esa Nobel mukofotini ikki marotaba qo'lga kiritgan yagona ayol hisoblanadi.

Taqdirlash marosimi

Nobelning Tinchlik mukofoti har yili Nobel vafot etgan 10-dekabr sanasida Norvegiya qiroli ishtirokida tantanavor tarzda topshiriladi. Mukofot egasi o'z sovrinini Norvegiya Nobel qo'mitasi raisi qo'lidan olishi odat tusiga kirgan. Aytish joizki, bu — taqdirlash marosimi Stokgolmda bo'lib o'tmaydigan Nobelning yagona mukofotidir.

Marosimda Nobel laureatiga diplom, medal, mukofotni tasdiqlaydigan hujjat va, albatta, yirik miqdordagi pul mukofoti topshiriladi. Taqdirlash marosimi Oslo shahrida o'tkaziladi. Keyingi kuni esa orziqib kutilgan katta konsert dasturi bo'lib o'tadi. Dunyoning 150 mamlakatidagi 450 milliondan ortiq xonadonga translatiya qilinadigan xalqaro ahamiyatdagi konsert dasturiga taniqli mehmonlar hamda san'at yulduzlari taklif etiladi.

Iroda TOSHMATOVA



Bungacha aniqlangan eng keksa dengiz baliq'i bir asrgacha yashashi mumkin bo'lgan grenlandiya akulasi edi.

Eng keksa baliq topildi

Olimlar chuchuk suvda yashovchi tarixdagi eng keksa baliqni topishga muvaffaq bo'ldi. "Ictiobus cyprinellus" turiga kiruvchi ushbu baliq naq 112 yoshda, deb yozdi "Science Alert".



Bu yosh chuchuk suvda yashovchi har qanday baliqnikidan deyarli 40 yosh katta, deyiladi xabarda. Bungacha aniqlangan eng keksa dengiz baliq'i bir asrgacha yashashi mumkin bo'lgan grenlandiya akulasi edi.

2011 — 2018-yillar oralig'ida kechgan tadqiqot jarayonida olimlar shu turdagi baliqlarning ko'pini laboratoriya sharoitida o'rgandi. Baliqlarning yoshini aniqlash uchun esa har biriga belgi qo'yildi.

Uzoq yillik kuzatuvlardan so'ng mutaxassislar baliqlarning ko'pi o'rtaacha 80—90 yil yashaydi, degan xulosaga kelgan edi. Ammo eng keksa baliqning yoshi bundan ancha kattaroq bo'lib chiqdi.




Tishlarni yemiruvchi ichimliklar

Polshadagi Varshava tibbiyot universiteti xodimlari qaysi ichimliklar inson tishlariga zarar yetkazishi ustida tadqiqot o'tkazdi.

Natijalar "International Journal of Environment and Health" jurnalida chop etildi, deb xabar qildi "Sputnik".

Jarayonda olimlar tarkibida shakar o'rmini bo'suvchi sun'iy birikmalar (ksilit, eritrit, steviya) bo'lgan hamda xushbo'ylashtirilgan ichimliklarning tish emaliga ta'sirini o'rgandi. Olingan natijalar yuqoridagi birikmalarning glyukoza-fruktoza



sharbati singari tishlarning yemirilishiga sababchi bo'lishini ko'rsatdi.

Bundan bir necha yil ilgari tadqiqot o'tkazgan Avstraliyadagi Melburn universiteti olimlari ham shunday xulosaga kelgan edi. Ular o'shanda tarkibida kislotali qo'shimchalar (limon kislotasi — E330, fosfor kislotasi — E338) bo'lgan ichimliklar tish emalini 30 — 50 foiz yumshatishini aniqlagan. Bu esa shakarsiz ichimliklar ham xuddi shirin ichimliklar kabi tishlarga zarar yetkazishini tasdiqlaydi.

Shu bois, olimlar tarkibida limon kislotasi — E330 hamda fosfor kislotasi — E338 bo'lgan ichimliklarni iste'mol qilishda ehtiyot bo'lishni tavsiya etmoqda. Ammo bu shunga o'xshash ichimliklarni mutlaqo ichmaslik kerakligini anglatmaydi. Shunchaki, bu borada tish shifokorlarining shunday ichimliklarni ichgandan so'ng tishlarni bundaniga emas, bir necha soatdan keyin tozalash kerakligi borasidagi maslahatlarini yodda tutish maqsadga muvofiq. Boisi, ular tish emali qavatini yumshatadi va tish cho'tkasi unga zarar yetkazishi mumkin.

Iroda TOSHMATOVA tayyorladi.

Xojiyeva Shaxlo Xazratovnaning 10.00.02 — O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha "Cho'lpon she'riyatida poetik tafakkurning yangilanish tamoyillari" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.05.2018.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-avgust soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.
Tel/faks: (75) 225-34-13, 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

Rabbimova Gulnora Toshtemirovnaning 14.00.01 — Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Genital infeksiyasi bo'lgan homiladorlarda tashxislash, bashoratlash va asoratlarni davolash" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Xudoyberdiyev Oллоqul Isaqovichning 15.00.01 — Dori texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy dorivor o'simlik xomashyosi asosida diuretik "Ekustim" dori vositasini olish texnologiyasi" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: pharmi@pharmi.uz

Xusanova Onarxon G'aybullayevnaning 03.00.05 — Botanika ixtisosligi bo'yicha "Shimoliy Farg'ona vodiysi tik mintaqalari tuproq yuza qatlamlarida tuproq suvo'tlarining tarqalish xususiyatlari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Botanika instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.B.39.01-raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-avgust kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100125, Toshkent shahri, Do'rmon yo'li ko'chasi, 32-uy, O'zR FA Botanika instituti. Tel/faks:(71) 262-37-95, 262-79-38; e-mail: botany@academy.uz

Yerimbetov Bayrambay Karlibayevichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Malakali kurashchilarning musobaqa va mashg'ulot jarayonini pedagogik nazorat qilishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish (kurash milliy sport turi misolida)" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat, anjumanlar zali.

Tel/faks: (70) 717-17 71, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz.

Reklama • e'lon

Arziqulov Muqom O'rulovichning 13.00.04 — Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Og'ir atletikachilarning sport takomillashtirish bosqichidagi mashg'ulot vositalari va yuklamalari hajmini optimallashtirish" mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 23-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy, bosh o'quv binosi, 2-qavat, anjumanlar zali.
Tel/faks: (70) 717-17-71, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsu@uzdjtsu.uz

Temirova Saodat Yorovnaning 14.00.36 — Allergologiya va immunologiya ixtisosligi bo'yicha "Herpesvirusli infeksiya turli variantlarining shakllanishi va kechishining klinik-immunologik jihatlarini" mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'z RFA Immunologiya va inson genomikasi instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.30.08.2018.Tib.50.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100060, Toshkent shahri, Yahyo G'ulomov ko'chasi, 74-uy.
Tel/ faks: (71) 233-08-55; e-mail: immunologiya@qip.ru

Kenjayeva Sabohat Eshmatovnaning 10.00.01 — O'zbek tili ixtisosligi bo'yicha "O'zbek tili antropimlarning nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi" mavzusidagi (filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30.05.2018.Fil.70.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-avgust soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17-uy.
Tel/faks: (75) 225-34-13, (75)221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti jamoasi, institutning sobiq xodimi filologiya fanlari nomzodi

Soraxon OTAMIRZAYEVANing


vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari va yaqinlariga ta'ziya bildiradi.

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti qoshida-gi 1-sonli akademik litsey tomonidan 2019-yilda Abdusattorov Abduzoxid Ulug'bek o'g'li nomiga berilgan L № 379651 raqamli DIPLOM yo'qolganligi bois

BEKOR QILINADI.

Koinot muzeyi

(“Galaktikada bir kun” ilmiy-fantastik qissasidan parcha)



(Oxiri. Boshi o'tgan sonlarda.)

Galaktikamizda noyob yulduzlar ko'p. Shulardan biri Rigel deb ataladi. U galaktikaning eng qudratli, eng yorqin yulduzlaridan biri. Rigel Quyosh tizimidan juda-juda olisda — 860 yorug'lik yili uzoqlikda joylashgan. U Quyoshdan 74 marta katta va 130 barobar yorqinroq. Shuning uchun u o'ta gigant yulduz hisoblanadi. O'ta katta va yorqinligi sabab, olisda bo'lsa ham uni tungi osmonda oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin. Qadimda bobolarimiz bu yulduzni “Pahlavonning oyog'i” deb atashgan. Ayrim xalqlar bu yulduzni ilohiylashtirgan.

Koinot muzeyi mana shu Rigel yulduzining yaqinida joylashgan edi. Qahramonlarimizning bu galgi safari naq to'rt kun davom etdi. Zero, “Ko'kkezar” qanchalar tezkor bo'lmasin, 860 yorug'lik yiliga teng masofa qarshisida imillab qolishi tabiiy.

Koinot muzeyi biror binodan emas, balki yerdan 33 marta katta bo'lgan butun bir sayyoradan tashkil topgandi. Bu sayyora galaktikadagi eng mashhur va eng gavjum sayyohlik markazi hisoblanar edi. Har kuni bu joyga milliardlab sayyohlar tashrif buyurur va yana shunchasi uchib ketardi. Muzey-sayyorada galaktikadan yig'ib keltirilgan eng noyob eksponatlardan tashqari, sayyohlar uchun yotoqxonalar, ko'ngilochar bog'lar, bozorlar, savdo markazlari, restoranlar, suzish havzalari va yana minglab allambalo narsalar bor edi. Qisqasi, butun sayyorani aylanib chiqib, undagi g'aroyibotlarning barchasiga guvoh bo'lish uchun ming yil ham kamlik qilardi.

Mana, hozir Ahmad Koinot muzeyini 400 km uzoqlikdan tomosha qila turib, uni asalari uyusiga o'xshatib yubordi. Chindan ham unga qo'nib uchayotgan kemalar asalarilar kabi g'uj-g'uj edi.

— Qo'nib olishimiz ham oson kechmaydi, — dedi bu chigal manzaradan boshi qotgan Margol.

— Menimcha, biz ham navbatga turishimiz kerak. Qarang, boshqalar huv anavi tunneldan birma-bir ichkariga kirib ketishyapti.

Ahmad sayyoraning kemalar qo'nish maydoniga olib boruvchi tunnel haqida gapirgandi. U yerda kelgan sayyohlar qatnovini tartibga solish maqsadida navbat tashkil qilingan. Bundan tashqari, har bir kema xavfsizlik nuqtayi nazaridan tekshiriladi, bojxona nazoratidan ham o'tkaziladi.

Ko'p o'tmay bizning qahramonlarimiz ham mehmonlar tashkil qilingan navbatga qo'shilib olishdi. Ularga “1440-navbat” degan qog'oz ham berildi. Shu bir parcha qog'oz bo'lmasa, ayrim uddaburonlar navbati qolib, oldingi saflarga o'tib ketib qolishlari ham hech gap emas.

Tunnelga kirib olishning o'zi uch soatga cho'zildi. Avvaliga ularni xavfsizlik xizmati xodimlari tekshirdi. Kemani yaxshilab ko'zdan kechirib, Margolning sovuq qurollarini “Qaytib ketayotganingizda beramiz” deb olib qo'yishdi. So'ng ular bojxona nazoratidan ham o'tishdi. Bojxonachilar kemada taqiyqlangan mahsulotlar bormi-yo'qmi, sotish uchun nimalar olib kelindi, ularning hujjati bormi — barini tekshirardi. “Ko'kkezar” esa bu borada top-toza bo'lgani sabab, ular bu joyda ko'p qolib ketishmadi. Nihoyat, “Ko'kkezar” avturargohni esga soluvchi fazo kemalarining qo'nish maydoniga kirdi. Bu maydon shu qadar katta ekanidan oxiri ko'rinmasdi. Fazo kemalari ham turlicha: ba'zilar tomi yopilgan futbol maydonidan ham katta bo'lsa, ba'zilar o'yinchoq mashinaday kelar edi. “Ko'kkezar” maxsus maydonchaga qo'nishi bilan ularning oldiga xizmatchi droid yetib keldi.

— Xush kelibsiz, aziz mehmonlar! — dedi droid o'ta rasmiy ohangda.

Margol esa gapni cho'zmay maqsadga ko'chib qo'ya qoldi:

— Xushvaqt bo'l. Bilmaysanmi, galaktika xaritasining bo'lagi qayerda saqlanadi?

— Bilasizmi, muzeyimizda 10 trilliondan ortiq eksponat bor. Mening xotiramga eksponatlar katalogi sig'maydi. Men shunchaki fazo kemalari turargohining nazoratchisiman.

— Tushunarli. Unda bizga shunchaki chiqish yo'lini ko'rsat.

— Chiqish yo'li o'ng tarafingizda. Lekin, avval, turargoh xizmatidan foydalanish haqini to'lab qo'yinglar.

— Nima?! — ajablendi Margol.

— Ha, sizdan 7 koinot lungi bo'ladi.

— Bizda pul yo'q-ku!

— Juda qiziq sayyoh ekansizlar-ku. Yuz yildan beri shu joyda ishlab hali puli yo'q sayyohni ko'rmaganman.

— Yo'q, biz bu joyga umuman boshqa maqsadda kelganmiz, — Ahmad ham suhbatga aralashdi.

— Qanday maqsadda kelgan bo'lsangiz ham turargohimiz xizmatidan foydalanaysiz-ku?! Yaxshisi, sizlarga chek yozib beraman, qaytishingizda to'lab katarsiz. Ammo pulni to'lmasangiz kemani ham ololmaysizlar.

Noiloq qolgan qahramonlarimiz chekni olib yo'lda davom etishdi. Ular fazo kemalari turargohidan chiqishganida odam hatto tushida ham ko'rishi mushkul bo'lgan manzara qarshisidan chiqishdi. Bu joy muzey emas, naq mo'jizalar mamlakatining o'zi edi. Osmonda muallaq uchib yurgan binolar va hovuzlar, tog'dan emas, havoning o'zidan tushib kelayotgan sharsharalar, bog'lar, hashamatli shaharlar, o'yin attraksionlari, go-logrammali tasvirlar, uchar likopchalar va boshqa ko'plab g'aroyibotlar aqlni shoshirib qo'yar edi. Bu yerda galaktikaning turli sayyoralaridan kelgan milliardlab sayyohlar ko'ngilxushlik qilish bilan band edilar. Bu sayyohlarning shakl-shamoyili turli-tuman bo'lib, ular orasida fildek keladigan beso'naqaylari ham, sichqondek keladigan mittivoylari ham bor. Lekin hech kim hech kimga zarar keltirmas, hamma ahil-inoq vaqt o'tkazardi. Ammo ba'zan kimdir bezorilik qilib qolsa, muzey nazoratchilari tezda uni tartibga chaqirib qo'yardi.

— Bu yer bekorga sayyohlik markazi emas, har bir qadaming pul turadi, — dedi atrofga sinchiklab qarab chiqqan Margol hamrohlariga yuzlanib.

— Qiziq, safarimiz davomida pul kerak bo'lishi mumkinligini oldinroq o'ylab ko'rmaganimizni qarang, — afsuslandi Ahmad.

Chindan ham bu sayyorada mushuk ham bekorga o'ftobga chiqmas ekan. Pul yo'qligi sabab ular biror muzey binosiga ham kira olishmadi. Sababi bir kishilik chipta 50 koinot lungi turardi. Ma'lumotlar bazasidan xaritani qidirishmoqchi edi, ammo bu xizmat ham 2 koinot lungi turarkan. Muzey gidlari esa pul bo'lmasa, salomga alik ham olmay ketaverardi. Xullas, bu chigal vaziyatda qahramonlarimiz borar joyini ham, qilar ishini ham bilmay qoldilar.

— Ahmad, balki senda biror qimmatbaho narsa bordir? — so'radi Margol.

— Yo'g'-e, sumkamda bir futbolka va ishton, qotgan non, suv, turshak va yong'oqdan boshqa hech vaqo yo'q.

— Ha, juda-juda qashshoq sayyoh ekanmiz-da, — kuldi Margol. — Moki balki sen ma'lumotlar bazasi joylashgan kompyuterning himoya tizimini buzib ko'rarsan?

— Mayli, harakat qilib ko'ray. — Moki shunday deb, baland bir binoning kirish eshigi oldida turgan, monitori kat-

ta kompyuter oldiga bordi. Qo'llaridan o'sib chiqqan uzun naychani monitoring yon tarafidan ichkariga suqdi. Ammo shu payt himoya tovushlari ishlab ketdi. Bir soniya o'tmasidan to'rtta nazoratchi robot yashinday uchib keldi. Ular bir og'iz ham so'z aytmay Mokini ushlab, uchar qurilmaga mindirdilar-da, o'zlari bilan allaqayoqqa olib ketdilar. Margol bilan Ahmad esa turgan joylaridan qimirlashga ham ulgurmay qolishdi.

Bu yerning himoya tizimi Qora sayyoradagi qamoqxonaga nisbatan ancha kuchli edi. Qahramonlarimizning o'zlariga ortiqcha baho berganliklari ularga qimmatga tushdi. Bundan tashqari, ular qonunga xilof ish qilayotganlarini ham, bunga yarasha jazo muqarrar ekanini ham bilishlari kerak edi. Mana oqibati — o'zi shundoq ham nima qilarini bilmay turgan jamoaning eng kerakli a'zosi mirshabxonaga olib ketildi.

Ahmad va Margol birpas qanday chora ko'rish kerakligini bilmay hali u yoqqa-hali bu yoqqa chopib Mokini qidirishdi. Yaxshiki, pul olmaydigan sayyohlarning biri mirshabxonaga borish yo'lini bilarkan ekan — ularga yo'l ko'rsatib yubordi.

Hatto jamoat transportlaridan foydalanish uchun ham puli bo'lmagan qahramonlarimiz mirshabxonagacha 8 km masofani yayov bosib o'tishdi. Mahkamada ularni to'rt qo'lli barzangi zobit qarshi olib, nima maqsadda kelganlarini so'radi. Ular esa vaziyatni tushuntirishdi. So'ng ularni mahbuslar bilan uchrashish xonasiga olib borishdi. Birozdan keyin xonaga Moki kirib keldi.

— Salom, do'stlarim!

— Moki, qalaysan, senga hech narsa qilmadimi? — so'radi Ahmad.

— Yo'q, hamma qurilmalarim soz.

— Xo'sh, ular seni nima qilar ekan?

— Men bilan suhbatlashishdi. Nega kompyuterga tekkanimni so'rashdi. Men esa bir ma'lumot juda kerakligi, pulim yo'qligi sabab uni ololmaganimni, qilgan ishimi jinoyat ekanini bilmaganimni aytdim.

— Endi nima bo'ladi? — so'radi Margol.

— Menga ma'muriy jazo qo'llanilib, 1000 koinot lungi miqdorida jarimaga tortishdi.

— Ana xolos, 2 lungni deb 1000 lungga tushib o'tiribmiz, — qilgan ishlaridan afsuslandi Ahmad.

— Moki, sen xavotir olma. Biz pul topishga harakat qilamiz, — dedi Margol.

Shundan keyin ular Moki bilan xayrlashishdi. Tashqariga chiqishganida qosh qorayib qolgan ekan. Endi ular tunab qolish uchun joy axtara boshladilar. Afsuski, birorta ham tekin boshpana topa olishmadi. Yaxshiyamki, Margolning lazer nurli laboratoriyasi yonida ekan. Ular laboratoriyani yo'lning chekkasiga o'rnatishdi-da, uning ichiga kirib uyquga ketishdi.

Sa'dulla QURONOV

O'zbekiston terma jamoasi vakillari ushbu qit'a birinchiligida 10 ta oltin, 2 tadan kumush va bronza medallari bilan yurtimizga qaytdi.

Qizlarning sport bilan shug'ullanishiga salbiy qaraydigan vaqtlar o'tib ketdi. Bugun har bir qishlog'-u tumanlarda biror sport turini mahkam tutib, chempionga aylanayotgan yoshlarning ko'pchiligini qizlar tashkil etayotgani quvonarli hol.

Sarvinozning parvozi

Zomin tumanidagi 20-maktabning 7-sinf o'quvchisi Sarvinoz Qo'shboqova ham hali kichkina bo'lishiga qaramay, jang san'atida yuqori marralarni zabt etayotgan sportchilardan. Bir necha yildan buyon ushbu sport turi bilan shug'ullanayotgan qizaloqning Toshkent shahrida o'tkazilgan Osiyo ochiq chempionatida 36 kg vazn toifasida birinchilikni qo'lga kiritib, Janubiy Koreyada o'tkaziladigan jang san'ati bo'yicha jahon chempionatiga yo'llanmani qo'lga kiritishi qishloqdoshlari ko'ksini faxrga to'ldirdi.

Sarvinozning yutuqlaridan ruhlangan tengdoshlari unga havas qilib, turli sport to'garaklariga qatnay boshladi. Bugun maktabda tashkil etilgan yengil atletika, shaxmat, futbol mashg'ulotlari o'quvchilar bilan gavjum. Ular orasida turli sport musobaqalarida ishtirok etib, g'oliblikka erishayotgan o'g'il-qizlar ham yo'q emas. Xususan, yengil atletika to'garagi a'zosi G'aybulla Abduraimov yoshlar marafoni hamda "Biz sog'lom turmush tarafdorimiz" shiori ostida o'tkazilgan yugurish marafonida 16 — 18 yosh toifasida birinchilikni qo'lga kiritdi.

Maktabdagi yosh chavandozlar to'garagiga qiziquvchilar soni ham kun sayin ortib bormoqda. Chavandozlik bo'yicha O'zbekiston chempionatida ishtirok etgan to'garak a'zolari nayzani uzozga otish, yadro ulotirish, kamondan o'q otish kabi yo'nalishlarda faxrli o'rinni qo'lga kiritib, umumjamoa hisobida g'oliblar safidan joy oldi.

Dilshod TO'YCHIYEV,
Zomin tumanidagi 20-maktab direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari

10 oltin, 2 kumush va 2 bronza

Kecha Quvaytda boks bo'yicha o'smirlar o'rtasida Osiyo chempionati o'z yakuniga yetdi.

2005-2006-yillarda tug'ilgan yoshlar o'rtasida o'tkazilgan bu galgi musobaqada qit'aning 21 davlatidan kelgan 150 dan ortiq yosh sportchilar 14 vazn toifasida ringda kuch sinashdi.

Quvonarlisi, barcha vaznda ishtirok etgan hamyurtlarimizning 12 nafari musobaqa finaligacha yetib keldi. Faqatgina ikki nafar bokschimiz yarim finalda hindistonlik raqiblariga mag'lub bo'lib, bronza medali bilan kifoyalangandi.

Final janrlarida 12 nafar bokschimizdan 10 nafari g'alaba qozonib, o'z vazn toifasida Osiyo chempioni degan sharaffi nomga sazovor bo'ldi.

O'zbekiston terma jamoasi vakillari ushbu qit'a birinchiligida 10 ta oltin, 2 tadan kumush va bronza medallari bilan yurtimizga qaytadigan bo'ldi. Hamyurtlarimiz umumjamoa hisobida ham birinchi bo'ldi. Azaliy raqiblarimiz qozog'istonlik bokschilar esa 2 ta oltin, 1 ta kumush va 7 ta bronza medali bilan keyingi o'rinni egalladi.

Osiyo chempionatida g'olib bo'lgan sportchilarimiz bilan tanishish:

Osiyo chempionlari

- 35 kg: Humoyunmirzo Abdurasulov
- 37 kg: Hojiakbar Mahmudov
- 40 kg: Farrux To'laganov
- 43 kg: Umidillo Abdurasulov



- 46 kg: Boburbek Bobojonov
 - 49 kg: Lazizbek To'liqinov
 - 52 kg: Dalerjon Bozorov
 - 55 kg: Jahongir Narziyev
 - 61 kg: Mirzob Nekboyev
 - 64 kg: Shavkatjon Boltayev
- Kumush medal sohiblari**
- 58 kg: Abdulaziz Abdurahmonov
 - 67 kg: Shahboz Hamidullayev
- Bronza medal egalari**
- 70 kg: Aynazar Kenesbayev
 - 70 kg: Husanboy Rixsiyev

Sh.NAMOZOV

Qoraqalpog'istonda yengil atletika bo'yicha "Biz epcil va chaqqonmiz!" shiori ostida o'tkazilgan turnirning respublika bosqichi bo'lib o'tdi. Unda shahar va tumanlardan saralangan 11 — 14 yoshdagi o'g'il-qizlar o'zaro kuch sinashdi.

Sog'lom turmush tarzi tarafdorimiz!

Prezidentimizning 5 muhim tashabbusi doirasida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, aholi orasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib etish maqsadida tashkil etilgan sport musobaqasi qizg'in bahslarga boy bo'ldi. Turnir davomida barcha o'g'il-qizlar o'z faolligi va chaqqonligini namoyon etib, birinchilik uchun kurash olib bordi.

— Yozgi ta'til kunlari biz — yoshlarning vaqtimiz maroqli o'tmoqda, — dedi Qorao'zak tumanidagi 11-umumta'lim mak-

tabining sakkizinchi sinf o'quvchisi Abduvohid Minajatinov. — Turli tadbirlar, adabiy kecha va sport musobaqalarida qatnashib, o'z bilim va imkoniyatimni sinovdan o'tkaz-yapmiz. Bugungi musobaqa ham barchada katta taassurot qoldirdi. Unda ishtirok etib, 400 km masofaga yugurish bo'yicha birinchilikni qo'lga kiritganimdan xursandman.

Yakunda barcha yo'nalishlardan g'oliblar aniqlanib, ularga diplom va esdalik sovg'alari topshirildi.

Nesibeli MAMBETIRZAYEVA

Nizamova Madina Mirgabtizyanovnaning 14.00.19 — Klinik radiologiya ixtisosligi bo'yicha «O'tkir o'pka respirator distress-sindromining nur tashxisi» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018. Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.
Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Sabirov Djaxongir Ruziyevichning 14.00.14 — Onkologiya ixtisosligi bo'yicha «Qizilo'ngach saratoni jarrohliligida videoassistirlangan transxiatal ezofagektomiya» mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04.12.2018. Tib.77.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 29-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Forobiy ko'chasi, 383-uy, Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi, majlislar zali.
Tel/faks: (71) 227-13-27, 246-15-96; e-mail: info@ronc.uz

Rahbarlar oliy kursda tahsil oladi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 23-maydagi "Yong'in xavfsizligi sohasida kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida tuman(shahar)lar va obyektlar yong'in xavfsizligi bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i lavozimlari qat'iy ravishda Yong'in xavfsizligi institutining Davlat yong'in xavfsizligi xizmati uchun rahbar kadrlar tayyorlash oliy kurslarini tamomlagan ofitser xodimlar bilan to'ldirilishi belgilab qo'yildi.

Shu munosabat bilan Favqulodda vaziyatlar vazirligi Yong'in xavfsizligi institutining qayta tayyorlash va malaka oshirish fakulteti tarkibida Yong'in xavfsizligi xizmati uchun shu sohada chuqur bilim, boshqaruvni tashkillashtirish va moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha zarur ko'nikmalar, axloqiy-psixologik va intellektual salohiyatga ega, shaxsiy tarkibni o'z ortidan ergashtira oladigan rahbar kadrlarni tayyorlash maqsadida rahbarlarni tayyorlash Oliy kursi tashkil etildi. Kursga 2019-2020-o'quv yili uchun 60 nafardan ortiq ofitser xodimlar hujjat topshirib, 5-avgustdan sinov imtixonlariga start berildi.

Imtixonlar uch bosqichda: jismoniy tayyorgarlik bo'yicha amaliy sinovlarni qabul qilish, "Yong'in nazorati va profilaktika ishlarini tashkil qilish", "Kasbiy tayyorgarlik, xizmat va yong'in o'chirishni tashkil qilish", "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari" yo'nalishlari bo'yicha nazariy test sinovlari hamda xodimlarning tahlil qilish qobili-

yati va boshqaruvchilik fazilatlarini baholash maqsadida suhbat tarzida o'tkaziladi.

— Sinovlardan bosqichma-bosqich o'tar ekanman, avvalo, o'z oldimga barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, institutning rahbar kadrlarni qayta tayyorlash Oliy kursi tinglovchilari safidan joy olishni maqsad qilganman, — dedi Buxoro viloyati YXB boshlig'i, kapitan Mahmud Najmiyev. — Bu menga amaliyotdagi faoliyatimni nazariya bilan bog'lagan holda yangi zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o'rganib, ularni kelgusida ish faoliyatimda keng tatbiq etishimga yordam beradi.

Sinov natijalariga ko'ra, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bo'yicha umumiy ko'rsatkich ballari yuqori bo'lgan xodimlar saralab olinadi.

Farhodjon XOJAYEV,
Favqulodda vaziyatlar vazirligi
Yong'in xavfsizligi instituti
o'qituvchisi, kapitan
Ubaydullo MANSUROV,
5-bosqich kursanti

Yosh matematiklar yutug'i

Jonajon O'zbekistonim, mangu bo'l omon!

Joriy yilning 1—6-avgust kunlari Janubiy Afrika Respublikasining Durban shahrida o'tkazilgan Xalqaro matematika musobaqasida (IMC — 2019) yurtimiz terma jamoasi a'zolari 14 ta medal va 2 ta faxriy yorliqni qo'lga kiritdi. O'zbekiston sharafini himoya qilgan 8 nafar o'quvchilarimiz individual masala yechish musobaqasida jami 6 ta (shundan 1 ta oltin, 1 ta kumush, 4 ta bronza hamda jamovaviy masala yechish musobaqasida 8 ta bronza ("Sekond runner up" sovrini uchun) medallariga ega bo'lishdi. Musobaqa davomida 30 dan ortiq davlatdan 600 nafar o'quvchi ishtirok etdi.

Jumladan, Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi 1-IDUMining 7-sinf o'quvchisi Anvarjon Rahmatov musobaqaning oltin medaliga sazovor bo'ldi. Peshku tumanidagi 18-maktabning 10-sinf o'quvchisi Jahongir Norboyev kumush medal, Qorako'l tumanidagi 1-IDUMining 9-sinf o'quvchisi Olimjon Olimov, Ki-

tob tumanidagi 1-IDUMining 10-sinf o'quvchisi Eldor Neymatov, Qorako'l tumanidagi 1-IDUMining 7-sinf o'quvchisi To'ymurod Qodirov, Urganch shahridagi 6-IDUMining 7-sinf o'quvchisi Bekzod Maqsudov bronza medal bilan taqdirlandi. Shuningdek, jamoaviy masala yechish musobaqasida O'zbekis-



ton terma jamoasi bronza medalga sazovor bo'ldi.

— Musobaqada 41 ta davlatdan ta'lim tizimlari umume'tirof etilgan Janubiy Koreya, Xitoy, Singapur, Gonkong, AQSh, Buyuk Britaniya, Kanada, Avstraliya, Ruminiya, Bolgariya kabi davlatlardan kelgan

500 nafardan ortiq eng iqtidorli o'quvchilar matematikaning kombinatorika, sonlar nazariyasi, geometriya bo'limlariga oid murakkab va nostandart masalalarni yechishda bellashishdi, — dedi Xalqaro olimpiada terma jamoa rahbari Shuhrat Ismoilov. — 2014-yildan boshlab mam-

lakatimiz o'quvchilari xalqaro matematika musobaqasida ishtirok eta boshladi. Ular shu kunga qadar 3 ta oltin, 7 ta kumush, 4 ta bronza medallarni qo'lga kiritgan.

Sh.BOYMURODOVA

V.GRANKIN olgan suratlar.

«Yoz — 2019» konsepsiyasi bo'yicha

Nukus shahar «Barkamol avlod» bolalar markazida o'quvchilarning yozgi ta'limni mazmunli o'tkazishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

Markazda «Yoz — 2019» konsepsiyasi bo'yicha tashkil qilingan tasviriy san'at, estrada-vokal, bichish-tikish, to'qish, raqs, kompyuter savodxonligi, mental arifmetika, chet tili, yosh ekolog, aviamodel, shaxmat, shahka to'garaklarida 700 nafarga yaqin o'g'il-qiz bilim va ko'nikmalarini oshirmoqda.

— Men shaxmat to'garagiga qatnashib kelmoqdaman. Shu kungacha to'garak rahbarimiz Alpomish Yerejepovdan shaxmat sirlarini o'rgandim. Shu yil 11—19-mart kunlari O'zbekistonning



birinchi grossmeysteri Georgiy A'zamov xotirasiga bag'ishlab Toshkent shahrida o'tkazilgan «Tashkent Open XII» xalqaro turnirida muvaffaqiyatli ishtirok etdim. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston Respublikasida yoshlar o'rtasida o'tkazilgan nufuzli musobaqalarda bir necha marotaba sovrinli o'rinnlarni egalladim, — dedi Nurjan Jangabayev.

Ushbu markazda yozgi ta'lim payti iqtidorli o'quvchilar ishtirokida rasm chizish bo'yicha «Yoz — o'tmoqda soz!», «Biz — sog'lom turmush tarafdorimiz!» ijodiy tanlovlari, «Shaxmat taxtasi bilimdoni», to'qish hamda bichish-tikish bo'yicha «Eng chevar qo'llar» mahsulotlar ko'rgazmasi, estrada-vokal va raqs bo'yicha «Jonajon O'zbekiston, mangu bo'l omon!» shiori ostida festival tashkillashtirish rejalashtirilgan.

Maqsad HABIBULLAYEV (O'ZA) olgan suratlar.

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan. Indeks: 149, 150. G-829. Tiraj 11632. Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan, qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi — (71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Marifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy. Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonani manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 22.00 Topshirildi — 22.40

12 4 5 6